



FARG'ONA DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
MIN TAQAVIY MARKAZI



“O‘ZBEK FALSAFASI” MODULI BO‘YICHA

O‘QUV –USLUBIY MAJMUA

A.A.Qambarov - FarDU Falsafa
kafedrasи dotsenti, falsafa fanlari
nomzodi



2023

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi FarDU Ilmiy kengashining 2022 yil “26” dekabrdagi 5-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi:

A.A.Qambarov - FarDU Falsafa kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

I.M.Arzimatova -FarDU Falsafa kafedrasi mudiri, dotsent, falsafa fanlari nomzodi

D.E.Normatova - Falsafa kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR	4
II.	MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI	14
III.	NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	17
IV.	AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	57
V.	GLOSSARIY	73
VI.	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	77

I. ISHCHI O'QUV DASTURI

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamdainnovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarini o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

I. Modulning maqsadi va vazifalari

“O‘zbek falsafasi” modulining maqsadi: pedagog kadrlarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta’minlashlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam yangilash, malaka talablari, o‘quv reja va dasturlari asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

“O‘zbek falsafasi” modulining vazifalari:

- “Falsafa” yo‘nalishidagi pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma hamda malakalarini uzlusiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;

- zamonaviy talablarga mos holda oliy ta’limning sifatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- “Falsafa” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta’minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo‘yiladigan talablar:

“O‘zbek falsafasi” moduli bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- o‘zbek falsafasining umumnazariy masalalari hamda milliy asosga ega bo‘lgan falsafiy munosabatlarni;
- o‘zbek falsafasining jamiyat ma’naviy hayotidagi ahamiyati, o‘zbek falsafasining ma’naviyat tizimidagi o‘mini;
- o‘zbek falsafasining boshqa xalqlar falsafasi bilan dialektik bog‘liqligi, uning umumiy qonuniylari, o‘zbek falsafasining dolzarb muammolari va uning shaxs kamolotiga ta’siri,yuzaga keltiruvchi omillari haqida nazariy bilimlarni bilishi kerak.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№		Tinglovchilaning o'quv yuklamasi, soat					
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi				Mustaqil ta'lim
			jam'i	Nazariy	jumladan	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1.	Markaziy Osiyoda falsafiy fanlar va madaniyat rivojlanishining tarixiy ildizlari	4	4	2	2		
2.	Globallashuv sharoitida yangicha tafakkur shakllanishini rivojlantirish zarurati	4	4	2	2		
3.	XX asr o'zbek falsafasi va uning rivojlanish strategiyasi	4	4	2	2		
4.	"Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" o'zbek falsafasining zamonaviy konsepsiysi	3	3	1	2		
5.	O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga kirib borishining asosiy yo'nalishlari	3	3	1	2		
	Jami:	18	18	8	10		

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Markaziy Osiyoda falsafiy fanlar va madaniyat rivojlanishining tarixiy ildizlari (2 soat)

Reja:

1. O‘zbek falsafasi bormi?
2. O‘rta Osiyo – insoniyatning Sharqdagi ilk madaniyat markazlaridan biri.
3. O‘zbek falsafasining ikki qanoti.

Mazkur mavzuda O‘zbek falsafasi modulini o‘qitish jarayonida dastlab o‘zbek falsafasi bormi? - degan savolga javob topishga harakat qilinadi, so‘ngra O‘rta Osiyo – insoniyatning Sharqdagi ilk madaniyat markazlaridan biri ekanligi ko‘rib chiqiladi va o‘zbek falsafasining ikki qanoti haqidagi fikrlar atroflicha tahlil qilinadi.

2-mavzu: Globallashuv sharoitida yangicha tafakkur shakllanishini rivojlantirish zarurati (2 soat)

Reja:

1. Globallashuv sharoitida yangicha tafakkurning zarurligi.
2. Yangicha tafakkurni shakllantirishning falsafiy omillari.
3. Yangicha tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda milliy mentalitet.

Globallashuv sharoitida yangicha tafakkurning zarurligi hamda yangicha tafakkurni shakllantirishning falsafiy omillari, shuningdek, yangicha tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda milliy mentalitet masalalari mazkur mavzuda keng yoritib beriladi.

3-mavzu: XX asr o‘zbek falsafasi va uning rivojlanish strategiyasi (2 soat)

Reja:

1. XX asr o‘zbek falsafasining shakllanishi omillari.
2. XX asr o‘zbek falsafasining asoschilari.
3. Jamiatning yangi taraqqiyoti bosqichida milliy falsafa matabining strategiyasi.

XX asr o‘zbek falsafasi va uning strategiyasi mavzusi orqali XX asr o‘zbek falsafasining shakllanishi omillari hamda XX asr o‘zbek falsafasining asoschilari va milliy falsafa matabining strategiyasi masalalari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

4-mavzu: “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” o‘zbek falsafasining zamonaviy konsepsiysi (2 soat)

Reja:

1. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” konsepsiyasining mazmun-mohiyati.
2. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” o‘zbek falsafasining zamonaviy konsepsiysi ekanligi.
3. Yangi O‘zbekistonda o‘zbek falsafasiga munosabat.

Mavzuda “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” konsepsiysi va uning mazmun-mohiyati, shuningdek, “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” o‘zbek falsafasining zamonaviy konsepsiysi ekanligi hamda yangi O‘zbekistonda o‘zbek falsafasiga munosabat masalalari keng va atroficha yoritib beriladi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR

1-mavzu: Markaziy Osiyoda falsafiy fanlar va madaniyat rivojlanishining tarixiy ildizlari (2 soat)

Reja:

1. O‘zbek falsafasi bormi?
2. O‘rta Osiyo – insoniyatning Sharqdagi ilk madaniyat markazlaridan biri.
3. O‘zbek falsafasining ikki qanoti.

2-mavzu: Globallashuv sharoitida yangicha tafakkur shakllanishini rivojlantirish zarurati (2 soat)

Reja:

1. Globallashuv sharoitida yangicha tafakkurning zarurligi.
2. Yangicha tafakkurni shakllantirishning falsafiy omillari.
3. Yangicha tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda milliy mentalitet.

3-mavzu: XX asr o‘zbek falsafasi va uning rivojlanish strategiyasi (2 soat)

Reja:

1. XX asr o‘zbek falsafasining shakllanishi omillari.
2. XX asr o‘zbek falsafasining asoschilari.
3. Jamiyatning yangi taraqqiyoti bosqichida milliy falsafa matabining strategiyasi.

4-mavzu: “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” o‘zbek falsafasining zamonaviy konsepsiysi (2 soat)

Reja:

1. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” konsepsiyasining mazmun-mohiyati.
2. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” o‘zbek falsafasining zamonaviy konsepsiysi ekanligi.
3. Yangi O‘zbekistonda o‘zbek falsafasiga munosabat.

5-mavzu: O‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga kirib borishining asosiy yo‘nalishlari (2 soat)

Reja:

1. O‘zbekistonda ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashda o‘zbek falsafasi.
2. O‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga kirib borishining asosiy yo‘nalishlari.
3. Uchinchi renesans davrini shakllanishida o‘zbek falsafasi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.
6. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси – Т.: “Ўзбекистон”, 2021. 464 б.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Т.: O‘zbekiston, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ – 637- sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim

muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4732-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

1. Falsafa. Axmedova M. Taxriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
2. Mamashokirov S. Tahriri ostida. Falsafa. -T.: Sharq, 2005.
3. A.Mamanov. Milliy mentalitet: xususiyatlar va omillar, S.: «Zarafshon» - 2015.-155 b.
4. Abdulla Sher. Axloqshunoslik / Darslik. -Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010 y.
5. Abdulla Sher. Estetika. / Darslik. -Toshkent: O‘zbekiston, 2015 y.
6. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shaxri.-T.:Yangi asr avlodi, 2016.- 318 6
7. Асекретов О.К., Борисов Б.А., Бугакова Н.Й.и др.Современнийе образователнийе технологии: педагогика и психология: монография. – Новосибирск: Издательство СРНС, 2015. – 318 с.

<http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>

8. B.Husanov. Boshqaruv etikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2017.
9. Белогуров А.Й. Модернизация протесса подготовки педагога в контексте инновационного развития общества: Монография. — М.: МАКС Пресс, 2016. — 116 с. ИСБН 978-5-317-05412-0.
10. Bozarov D. Sinergetik paradigm. -T.: Tafakkur, 2010. -1606.
11. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
12. J.Rumi. Ichingdagi ichingdadur.-T.: Yangi asr avlodi, 2016.-272 b.
13. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/tuzuvchi. A.YE.Ibrayimov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
14. Игнатова Н. Й. Образованийе в цифровую эпоху: монография.М-во образования и науки РФ. – Нижний Тагил: НТИ (филиал) УрФУ, 2017.–128 с.
15. Izzetova E., Pulatova D. Filosofiya. -T.: Sharkshunoslik, 2012. 340-6
16. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
17. L.A.Muhammadjonova, D.O.Ortiqova, F.A.Abidjanova, G.K.Masharipova. Professional etika va etiket.Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018 y.
18. L.Muhammadjonova,F.Abidjanova Etiket. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2018 y.
19. M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoye posobiye. Rizograf imeni Nizami. 2018 g.
20. Muslimov N.A. va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
21. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. O‘quv qo‘llanma - T.: Universitet, 2017.
22. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf

23. Otamurodov S. Globallashuv va millat. - T.: Yang i asr avlodi. 2008.
24. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.–T.: “TKTI” nashriyoti, 2019 y.
25. Xayitov Sh., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. -T.: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
26. Shermuxamedova H.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.
27. Shermuxamedova N.A. Borlik va rivojlanish falsafasi.-T.: Noshir, 2013,720 6
28. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2017. 460-6.
29. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.
30. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: Moliya, 2003.
31. Mamashokirov S. Tahriri ostida. Falsafa. –T.: Sharq, 2005.

IV. Internet saytlar

- 33.<http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
- 34.<http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
- 35.<http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
- 36.<http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET
- 37.<https://philpapers.org/> - mejdunarodnaya filosofskaya poiskovaya sistema po knigam, statyam, jurnalami, naxodyashimsya v otkritom dostupe
- 38.<https://plato.stanford.edu/> - Stenfordskaya ensiklopediya filosofii.
- 39.<https://elibrary.ru/> - krupneyshiy rossiyskiy informatsionno-analiticheskiy portal (v tom chisle) v oblasti filosofii

IV. Elektron ta’lim resurslari:

40. www.Ziyonet.uz
41. www.edu.uz
42. Infocom.uz elektron jurnali: www.infocom.uz
43. www.bimm.uz

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

“O‘zbek falsafasi” fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning fan xususiyatidan kelib chiqqan holda deyarli barchasi tadbiq etilishi mumkin. Xususan, ma’ruza va seminarlar “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bumerang”, “Menyu”, “B/B/B”, “Munozara”, “Rezyume” singari metodlar, slaydlar, multmedia namoyshlari bilan o‘tkaziladi. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini tulakonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan boglik ukish maksadlaridan kelib chikkap xolda yondoshilishni nazarda tutadi.

Shaxsga yunaltirilgan ta’lim. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chikkan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha buginlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini akllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgannatijalarini

baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi. Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilishorqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyatni ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rghanishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qishning an'anaviy shakllari (garslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar. Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi. Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovching birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati. Monitoring va baxolash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs ohirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. "O'zbek falsafasi" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, "Excel" elektron jadvallar dasturlaridan foydalilanadi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmog'idagi rasmiy iqtisodiyo 'rsatkichlaridan foydalilanadi, tarqatma materiallar tayyorланади, test

tizimi hamda tayanch so‘z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o‘tkaziladi. “O‘zbek falsafasi” darslari qiziqarli va talabaga boy axborot beradigan bo‘lishiga yordam beradigan ulublar juda ko‘p. Lekin ular orasida falsafaning eng sinalgan va eng qadimiy uslubi bo‘lgan “suqrotcha baxs”ga hech qaysi uslub eta olmaydi. Zero aynan shu uslub dialektik fikrlash uslubidir va aynan shu uslub dunyoga Suqrot, Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino kabi ko‘plab mutafakkirlarni etishtirgan. Ayni shu uslub Platon dialoglarida aks etgan va hozirgacha insoniyat etuk mutafakkirlarini kamolotga etkazishda davom etmoqda. Bu uslubni yaxshi bilish uchun mazkur dialoglarni chuqur o‘rganish kerak. Bugungi kunda ularning o‘zbek tilidagi tarjimasi amalga oshirilgani esa ishimizni yanada engillashtirdi. Bu uslub seminarda emas, balki faqat ma’ruzalar vaqtida o‘kaziladi. Bunda o‘qituvchi Suqrotning, talabalar esa Suqrotning suhbatdoshi rollarini o‘ynaydilar. Mazkur metodni mashq orqaligina namoyish etish mumkin. Shuning uchun bu erda ushubu uslubga boshqa to‘xtalmaymiz. Lekin metodikadan o‘tkazadigan seminarlarimizda bu metodni maxsus mashq qilib ko‘ra olamiz. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu uslubni falsafani chuqurroq biladiganlar o‘zlashtirishi mumkin va maqsadga muvofiqdir. Falsafa darslarining xajmi juda qisqa bo‘lgan nofalsaфа mutaxassisliklari darslarida esa uni qo’llash uchun etarli vaqt topib bo‘lmaydi. Ammo bu uslub masalaning javobi baxs qatnashchilaridan biriga ayon bo‘ladigan platoncha (suqrotcha) dialog emas, albatta. Bu savollar va ularga javoblar to‘qnashuvi jarayonida kelib chiqadigan o‘z o‘zidan tashkillanishi kutiladigan nochiziqli kognitiv-kommunikativ muhitdir.

“O‘zbek falsafasi” modulini o‘rganishga endigina kirishganlar esa avval osonroq uslublar asosida o‘z tafakkurlarini rivojlantiradigan uslublar asosida ishlashlari maqsadga muvofiq. Shunday ulublar qatoriga “insert” uslubi turadi.

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU: Markaziy Osiyoda falsafiy fanlar va madaniyat rivojlanishining tarixiy ildizlari (2 soat)

REJA:

- 1.O‘zbek falsafasi bormi?
- 2.O‘rta Osiyo – insoniyatning Sharqdagi ilk madaniyat markazlaridan biri.
3. O‘zbek falsafasining ikki qanoti.

Kalit so‘zlar: o‘zbek falsafasi, hind va xitoy, yunon-rim, ingliz, nemis, fransuz va rus falsafasi, milliy zamin, Zardushtiylik, Moniylik, Mazdakilik,insoniylik, milatparvarlik, millatlararo do’stlik, ezgulik.

O‘zbek falsafasini rivojlartirish mamlakatimiz taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Uning dolzarb vazifalari orasida O‘zbekistonning mustaqilligi, istiqlol yillarining tajribasi, o‘tgan davrda yurtimizda amalga oshirilgan tub o‘zgarishlar, islohotlar jarayonini falsafiy jihatdan o‘rganish, tahlil qilish va shu asosda amaliyot uchun zarur xulosa va takliflar ishlab chiqish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yillarida xalqimiz tafakkuridagi yangilanishlar, ma’naviy merosimizning tiklanishi,milliy o‘zlikni anglash sohalaridagi o‘zgarishlarni falsafiy izohlash masalalari ham dolzarb vazifalar qatoriga kiradi. Bular orasida mustaqillik, unga asoslangan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy,ma’naviy, huquqiy jarayonlarga falsafiy yondashuv bilan bog‘liqvazifalar alohida o‘rin tutadi.

Sir emas uzoq yillar davomida yoshlarga xitoy va hind falsafasi, qadimgi yunon-rim falsafasi, Bekon, Gobbs va Lok nomlari bilan blg‘langan ingliz falsafasi, Didro, Gelvetsiy, Golbax, Russo va boshqalar nomlari bilan bog‘liq fransuz falsafasi, Kant, Gegel, Feyyerbax va o‘nlab boshqa ismlarda o‘zini

namoyon qilgan olmon falsafasi haqida, Lomonosov, Radishchev, Chernishevskiy, Gersen va boshqalar orqali johon falsafasida o‘z o‘rnini egallagan Rus falsafasi haqida so‘zlab berilgan.

Jahon xalqlarining falsafiy boyligi va merosi haqida so‘zlanganda birinchi navbatda yuqorida sanab o‘tilgan falsafa maktablari va faylaso‘flari tushunilgan. Bundan ma’lum bo‘ladiki, jahon falsafasi milliy falsafiy maktablardan tashkil topgan. YA’ni, boshqacha qilib aytganda, umuman, mavhum falsafa yo‘q. Demak, falsafa milliy asosga ega emas, “milliy zamin” tushunchasini falsafaga ishlatish mumkin emas deyish tarix haqiqatiga to‘g‘ri kelmaydi. Huddi insoniyat madaniyati milliy madaniyatlar erishgan eng yirik yutuqlarning majmuasi sifatida namoyon bo‘lganidek, jahon falsafasi ham shu tamoyilga bo‘ysunadi. Bunday qiyoslashni shu boisdan ham o‘rinli deyish mumkinki, falsafaning o‘zi insoniyat madaniyatining muhim sohalaridan biri deb tan olinadi.

Yuqoridagi xulosalarga tayangan holda o‘zbek falsafasi bormi va bo‘lishi mumkinmi degan savolga javob topishga harakat qilamiz. XX asrning 60 yillaridan to mustaqillikkacha falsafa sahnasiga chiqqan yuzdan ortiq falsafa fanlari doktorlari istibdod markazi belgilab bergen dasturlar atrofida fikr yuritib, shu ilmiy qafas ichida mulohaza olib bordilar, chunki milliy falsafa to‘g‘risida gap ochish mumkin emas edi. Bu hammamizga ma’lumdir. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bugungi kunda ham O‘zbekiston falsafasiga xizmat qilayotgan olimlarning aksariyati istibdod davri falsafasining ko‘p yillar davomida targ‘ibotchisi va tashviqotchisi bo‘lganlar.

Bugungi kunda milliy zaminimizda “Avesto”dan boshlanib, Zardusht tomonidan bir butun tizim holiga keltirilib, Moniy va Mazdaklar tomonidan davom ettirilgan, Forobi, Ibn Sino va Beruniy asarlarida o‘zining yuksak cho‘qqilaridan biriga ko‘tarilgan, Navoiy, Mashrab, Axmad Donishlar orqali Behbudiy va Fitratlargacha etib kelgan o‘zbek milliy falsafasining bir butun silsilasini yuzaga keltirish zarur. Bu – o‘zbek millati oldida va umuman, jahon falsafasi oldidagi muqaddas burchdir.

Masalan, Alisher Navoiyni olib ko‘raylik. Navoiyning falsafiy va ma’naviy

merosiga nisbatan kengroq to‘xtalishimiz sababi shundaki, bu zot hozirgi zamonimizning ma’naviy-axloqiy ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan falsafiy fikrlarni XV asrdan turib bizga etkazib bergen. Bugungi kunda shoirning olam va uning mohiyati, inson va inson hayoti, xalq va xalqparvarlik, komillik va komil inson, muhabbat va go‘zallik to‘g‘risidagi o‘zbekona falsafasi insoniyat ongi va tafakkurida doimo yashab kelmoqda.

Aynan ana shu bobokalonlarimizning o‘lmas dahosi, bizga qoldirgan faxru g‘ururimiz bo‘lgan buyuk ma’naviy va falsafiy merosi bugungi avlodlarni hamkor va hamjixat bo‘lib yashashga, hayotimizni g‘oyat teran ma’no-mazmun bilan to‘ldirishga, kerak bo‘lsa, boyitishga da’vat etmoqda. Aynan ana shu meros bizni do‘slik va qarindoshlik rishtalarini har tomonlama mustahkamlashga, xalqlarimizning erkin va farovon hayotini bирgalikda barpo etishga undamoqda.

Navoiy ilm-fanni sevishni, chuqur insoniylik, milatparvarlik, millatlararo do‘slik va ezgulikni yagona o‘zbekona falsafiy tizimda kuylaydi-ki, bu uning ma’naviy merosini tarixiy o‘lmasligini ta’minlaydi. “Nazmu-l-javohir”, “Munojot”, “Mahbub-ul-qulub”, “Farhod va Shirin”, “Saddi Iskandariy” singari asarlarida ulug‘ adib o‘zigacha mavjud barcha ilohiy, ilmiy-adabiy ilmlarni chuqur o‘rganib teran fikr, ozod ruh, mustahkam iymon, tuyg‘ular nafosati va nihoyat, mukarram va ulug‘vor o‘zbek (turk) so‘zining qudratini namoyon etgan.

Tarixchi Xondamirning ta’kidlashicha, Navoiy ilm ahllariga katta e’tibor berib, talabalarning tinch, bemalol ilm olishlari uchun ularga nafaqalar belgilab, madrasa va xonaqohlar bino qiladi. Bulardan: madrasai “Ixlosiya”, xonaqohi “Xalosiya”, madrasai “Shifoziya”, madrasai “Nizomiya”, madrasai “Xumroviya” kabilar Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida sanab o‘tilgan. Ayniqsa, “Ixlosiya” madrasasi bilan “Xolosiya” xonaqohi bino qilingan zamonlardan to shu kunga qadar, - deb yozgan edi Xondamir, - yigirma ikki yil muddat ichida dunyoning har tarafidan va har burchagidan bu ikki joyga minglab talabalar kelib, oz fursatda turli ilm va fanlarni o‘rganishga muvaffaq bo‘lib, olqishlar va maqtashlar bilan o‘z vatanlariga qaytganlar.

Alisher Navoiy ulug‘ ma’rifatparvar shoir bo‘lib, u insonning aql-zakovatini

yuksak baholaydi, uni ilm-fan jamiyat taraqqiyoti va xalqning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda, hayot illatlarini bartaraf etishga xizmat qiluvchi qudratli vosita deb hisoblaydi. Navoiy nafaqat buyuk shoir, ma’rifatparvar shaxs, ayni bir vaqtda u yirik davlat arbobki, bugungi kunda ham uning olib borgan davlatni boshqarishdagiadolatli siyosati behad ahamiyatlidir. Navoiy inson hayotidagi barcha qiyin muammolarni ilm yo‘li bilan hal etishga chaqiradi va bu chaqiriq uchun olimu donishlar pillapoyasining eng yuqori cho‘qqisiga olib chiqdi. E’tibor berilsa, mutafakkir har bir asarida insonni ulug‘lab, uni insoniylik fazilatlarini egallahsga chaqiradi. Shuning uchun ham uning ma’naviy va falsafiy merosining asosini “Odami ersang, demagil odami, oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami” tashkil etadi. O‘rta asrlarning XV asrlarida yangragan bu so‘zlar hozir ham hayotiy pand-nasihat sifatida odamlar qalbidan joy olgan. Bularning barchasi o‘zbek milliy falsafasining asosini tashkil qiladi.

Navoiyning milliy falsafasidaadolatli bo‘lish g‘oyasi vatanparvarlik bilan uyg‘unlashib ketgan. Buyuk mutafakkir Vatanni sevishga, uning tuprog‘i, eri, suvi, tabiat va boyliklarini avaylab-asrab, inson manfaatlari uchun foydalanish zarur degan qoidani targ‘ib qiladi. Demak, falsafa kmshilarni eng avvalo falsafani o‘rgatuvchidan yuksak ma’naviy-ma’rifiy kamolot darajasiga ko‘tarilishini talab qiladi. Shuningdek, mutafakkirning ta’kidlashicha, falsafani egallahning eng asosiy vositasi nazariy aql orqali olinadigan ilmlar bo‘lib, u ma’rifiy hayotning sarchashmasidir.

Boborahim Mashrab (1640-1711) o‘zining keyingi hayotida Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarining ko‘p joylarida, xususan, Toshkent, Turkiston, Samarqand, Buxoro, Andijon, Xo‘jand, Badaxshon va boshka erlarda bo‘ladi. U umrining oxirida Balxda bo‘ladi.

Mashrab g‘azal va ruboiylarida ilohiy sevgi, ya’ni Ollohga muhabbatni tasvirlaydi. Mashrab tasavvufning qalandarlik tariqatini tanlaydi, xalqni ezgulikka, insof va diyonatga, to‘g‘rilikka chaqiradi. Umuman olganda, shoir islom aqidalarini inkor etmagani holda, uning ba’zi qoidalari mukaddasligiga gumonsirab qaraydi. Bular ayniqsa, Mashrabning ro‘za, jannat, do‘zax, namoz,

Makka, Ka’ba to‘g‘risidagi she’rlarida namoyon bo‘ladi.

Mashrabning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlarida hukmdorlarni insofga, xalqqa yordam berishga da’vat etish yotadi. Insoniylik, pok muhabbatni kuylash, kishilarni do‘slikka, vafodorlikka chaqirish, takabburlik va yolg‘on so‘zlashdan saqlanish, nasl-nasabga ishonmaslik, imon-e’tiqodini sotmaslik, ota-onani hurmat qilish kabi g‘oyalar Mashrab dunyoqarashining mag‘zini tashkil qiladi.

Mashrab borliqning asosi, hayotning mazmuni, insonni Xudoga bog‘lovchi asosiy vosita deb ishqni tushunadi. Uningcha, Xudoningdunyoni yaratishiga asosiy sabab bulgan narsa muhabbatdir. Shu sababdan, inson hirsu ochko‘zlik, hayvoniy sifatlar, manmanlik, xudbinlik kabi xislatlardan poklanish uchun, o‘z asli – ilohiy ishqqa yuz tutishi lozim. Aks holda, u insoniyligini yo‘qotib, tubanlashib ketishi muqarrar. Mashrab murakkab, qarama-qarshiliklarga boy davrda yashadi. Bu hol uning dunyoqarashida ham bilinib turadi. U, bir tarafdan, adolatli jamiyat, insonning go‘zal fazilatlari haqida fikr yuritsa, ikkinchi tomondan, yaxshi jamiyatga erishib bo‘lmasligi haqida gapirib, umidsizlikka, tarkidunyochilikka beriladi. Bularidan qat’i nazar, uning ajoyib she’rlari va undagi g‘oyalar hozir ham o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Ma’rifatparvarlik mafkurasining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Ahmad Donish (1827—1897) bo‘lib, u falsafa, falakiyot, riyoziyot, adabiyot, tarix sohasida asarlar yozgan.

U mamlakatni odilona boshqarish uchun islohot zarurligini uqtiradi. Davlat, olimning nuqtai nazaricha, xalqning manfaatini himoya qilishi, hukmdor esa bilimdon, aqli bo‘lib, o‘z atrofidagilar bilan kengashib davlatni idora qilishi lozim. Bunday fikrlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar olimning “Navodirul-vaqoye” va boshqa risolalarida o‘z ifodasini topgan. Ahmad Donish o‘z ijtimoiy-siyosiy qarashlarini real faktlar o‘z davrining hukmdorlari faoliyatidan olingan tarixiy dalillar asosida bayon qilgan. “Risola dar ilmi kurra” (“Globus haqida risola”), “Manozir al-kavokib” (“Yulduzlarni kuzatish”) kabi asarlarida o‘zining astronomiya va geografiya fanlari ga oid qarashlarini yoritib berishga harakat qilgan. “Tarixiy risola” asarida Buxoro amirligidagi inqirozning sabablarini taxlil qilib, jamiyat taraqqiyotining asosiy shartini tadrijiy, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan

isloqotlarni qayotga joriy qilish ekanligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishga harakat qiladi. Donishmandning bu fikri hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Mazkur silsila XX asrning 30-yillariga kelib uziladi, chunki Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Avloniy, Botu, So‘fizoda, Usmon Nosir singari yuzlab ziyorolar milliy fikr, milliy o‘zlik, milliy tafakkurning istiqbolli vakillari bo‘lganliklari uchun mustabid tuzum ularni xalq dushmani sifatida qatag‘on qilinadi. Shulardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiydir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919) jadidchilik asoschilaridan biri bo‘lib, yangi maktablar qurish, yosh avlodni mustaqillik ruhida tarbiyalash, ularni ilmiy qilish, ma’rifat va taraqqiyot uchun kurashga katta hissa qo‘shgan mutafakkirdir.

Behbudiy yangi maktablar uchun “Risolayi asbobi savod”, “Risolayi jug‘rofiyai umroniy”, “Kitobat ul-atfol”, “Amaliyoti islom”, “Risolai jug‘rofiyai rusiy” va boshqa darsliklarni yozadi. Uning asosiy asari “Padarkush” dramasidir. Bulardan tashqari, Behbudiy ko‘plab publisistik maqolalar yozdi, matbuotda xizmat qildi, nashr ishlari bilan mashg‘ul bo‘ldi. Uning maqolalarida millat va Vatan takdiri, mustakdlik g‘oyasi, axloq va ta’lim-tarbiya kabi boshqa masalalar ham o‘rin olgan.

Jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Avloniyning (1878-1934) falsafiy merosiga nazar tashlaylik. Uning adabiy va ilmiy merosi nihoyatda boy bo‘lib, falsafa, axloqshunoslik, pedagogika va boshqa sohalarni qamrab oladi. U “Birinchi muallim”, “Ikkinci muallim”, “Tarixi anbiyo”, “Turkiy guliston yohud axloq”, “Maktab gulistoni” kabi asarlarida o‘zining ta’lim-tarbiya borasidagi fikrlarini bayon etadi.

Adibning “Birinchi muallim”, “Ikkinci muallim” darsliklaridan keltirilgan ixcham hikoyalari, “Tarixi anbiyo”sidagi ma’lumotlar yosh avlod tarbiyasi uchun katta ahamiyatga ega. Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinci muallim”, “Tarixi anbiyo”, “Turkiy guliston yohud axloq”, “Maktab gulistoni” singari darsliklari o‘z davrida bir necha bor bosilib chiqdi hamda bu darsliklar o‘sha davrda ochilgan Turkistonning ko‘plab maktablari uchun muhim qo‘llanma bo‘ldi. Allomaning “Birinchi muallim” (1912) kitobi uning ko‘p yillik ijodiy

ishlari va pedagogik faoliyati natijasida yaratilgan bo‘lib, kitobning kirish qismida “Muhtaram muallim afandilarimizdan rijo qilurmanki, bizning “Birinchi muallim”imizdan ham olub, tajriba qilub, o‘qub ko‘rsalar. Chunki har gulning bir isi, har bir mevaning bir ta’m va mazasi bordur. Bu “bo‘y” va ta’m esa tajriba sohiblarina kashf va ma’lum erur. Shoyad, millat bolalarina foidabaxsh o‘lur umidinda bir necha so‘ngidan bu risolai ojizonamni “Birinchi muallim” ismi-la maydoni intishora qo‘ydim - degan fikrlarni yozadi.

Avloniyning “Ikkinchi muallim” kitobi “Birinchi muallim” kitobning uzviy davomi bo‘lib uni o‘qish, xrestomatiya deb atash mumkin. Mazkur xrestomatiya sodda, tushunarli tilda yozilgan kichik-kichik hikoyalar, bandlar va she’rlardan iborat. Muallifning o‘zi ham “Birinchi maktablarimizning shogirdlarina alifbodan so‘ng o‘qutmak uchun ochuq til va oson tarkib ila yozilub, axloqiy hikoyalar, adabiy she’rlar ila ziynatlanmush o‘quv kitobidir – deydi.

Shuningdek, 1913 yilda bosmadan chiqqan “Turkiy guliston yohud axloq” asari maktablarning yuqori sinf o‘quvchilariga atab yozilgan bo‘lsa-da, u adabiyot va axloq masalalari bilan shug‘ullanuvchilar uchun ham zarur qo‘llanma sifatida xizmat qiladi. Mazkur asarda axloqning tub mohiyati insonlarni yaxshilikka chorlovchi, yomonlikni rad etuvchi ilm ekanligi haqidagi ma’lumotlar berilgan.

“Turkiy guliston yohud axloq” asarida aql va ilmni ma’naviy-axloqiy olamning adib tomonidan ehtiros bilan ulug‘lanishi uning ma’rifatchilik g‘oyalarining mazmunidan kelib chiqadi. Muallifning fikricha, aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir. Ushbu risolada yozuvchi asosiy e’tiborni aql, ilm, ziyraklik, vijdon, vatan tuyg‘usi, til, haqiqat, hayo, iffat, muhabbat, munislik kabi ijobiy xislatlarni shakllantirishga, shuningdek, jaholat, g‘azab, dangasalik, yalqovlik, g‘iybat, hasad kabi illatlardan xalos bo‘lishga qaratadi.

Muallif bu fazilatlarni shunchaki ko‘rsatib o‘tmaydi, balki aniq hayotiy, amaliy ahamiyati ustida ham to‘xtalib o‘tadi. Uni insonni kamolotga etkazishda asosiy omil sifatida e’tirof etadi, shuningdek, sanab o‘tilgan illatlar esa insonni ijtimoiy taraqqiyotda izdan chiqishiga sabab bo‘ladigan omil deb aniq fikr bildiradi.

Alloma o‘z davrining dolzarb muammolarini inobatga olgan holda “Turkiy guliston yohud axloq” asarida barkamol insonni tarbiyalashda “Badan tarbiyasi”, “Fikr tarbiyasi”, “Axloq tarbiyasi”ga jiddiy e’tibor qaratadi, barkamol inson egallashi lizim bo‘lgan fazilatlar tizimini yaratadi. Avloniyning ta’kidlashicha, “Ichkilik, ko‘knor, nasha, afyun, taryok, chilim, nos, popirus kabi badanning salomatligiga zararli egulik, ba’zisi harom, ba’zisi makrux, ba’zi isrof bo‘lgan narsalardan qochmoq, saqlanmoq shariat, aql, hikmat yuzasidan lozumdir”, shuningdek, olim “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratlik bo‘lishiga sabab bo‘ladur” deydi. Shu bilan birga axloqiy tarbiyaga ta’rif berganda asosiy e’tiborni inson fe’li va hayratlari, mayllari: baxt mayli, faoliyat mayli, izzat-nafs, alofa mayli, boshqalarga mehr-muhabbat mayli, ibrat olib e’tiborda bo‘lish mayli, bilish mayli, go‘zallik mayli, fazilatga muhabbat, iroda va ixtiyor kabilarga qaratadi.

Avloniyning Oktabr inqilobigacha bo‘lgan poetik merosi, asosan “Adabiyot” nomli olti qismdan iborat she’riy to‘plamlarida jamlangan. Ularning har biri 1909-1917 yillar oralig‘ida alohida-alohida bir necha marotaba nashr qilingan. Shoirning bu davrda yozilgan barcha she’rlari milliy-ijtimoiy xarakterga ega ekanligining o‘zi o‘zbek milliy falsafasi asosini tashkil qiladi.

Abdulla Avloniy dramaturgiya sohasida ham bir qator asarlar yaratgan. “Finak” (1915), “Advakatlik osonmi?” (1916), “Ikki muhabbat” (1916) singari pesalar shular jumlasidandir. Bu asarlarda muallif bilimsizlik, kishilarning jaholat va nodonlik botqog‘iga boruvchi og‘ir qismati talqin qilinadi. Shuni alohida ta’kilash kerakki, Avloniy yozgan pesalari zamirida oila hayotini tasvirlash bilan inson qalbiga kirib borish, ularni ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy jihatdan tarbiyalash hamda jamiyat hayotida avj olib borayotgan milliy uyg‘onish g‘oyalarini tarannum etish bo‘lgan.

Pedagog olim Abdulla Avloniy asarlarini o‘rganishning falsafiy metodologik asosini u tomonidan qo‘llanilgan tarbiyaning nazariy jihatlariga tayanib qolmasdan, balki uning har bir o‘git va nasihatlarini dalillar, hayotiy

misollar yordamida mustahkamlash orqali yosh avlod ongida ushbu fikrlarning uzoq saqlanishini ta'minlashdan iborat bo'ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mutafakkir olim o'zining barcha asarlarida ta'lim-tarbiya, ya'ni barkamol shaxs tomonidan o'zlashtirishi zarur bo'lgan quyidagi: aqliy kamolot, axloqiy kamolot, jismoniy etuklik va go'zallikni his etish kabi sifatlarni yoritgan.

Jadidchilik harakatining yana bir yorqin vakili Abdurauf Fitrat (1884-1939) bo'lib, ilmning ko'p sohalarida ijod qilgan mutafakkirdir. Olim "Sayha" ("Bong"), "Hind sayyoohining qissasi", "Uchqun" to'plami, "Chin sevish", "Hind istilochilari", "O'zbek tili grammatikasi", "Chig'atoy adabiyoti" va boshqa ko'plab asarlar yozdi.

Fitratning asarlarida xalqni jaholat va nodonlikdan qutqazish, ilm-ma'rifikatga chorlash, milliy mustaqillikka erishish, xalqning o'zligini tanishi, ongingin o'sishi, kuchli va rivojlangan davlat tuzish, xalqning bilimdon bulib, tijorat va tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, Yevropaning fan va texnika yutuklarini o'rganish kabi g'oyalar ilgari suriladi. "Chin sevish" asarida bir qator dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalarni ko'tarib chikdi. Bulardan tashqari, tasavvuf ta'limotining mohiyati, yassaviylik, naqshbandiylik, kubraviylik ta'limoti to'g'risida qator ilmiy maqolalar e'lon kiladi. Mumtoz qo'shiqchilik san'ati hamda "Shashmaqom"dek noyob durdonaning bizning davrimizgacha omon-eson etibkelishida Fitratning hissasi beqiyos. Uning rahbarligida "Shashmaqom" musiqa tarixida ilk bora notaga tushirildi. Fitrat adabiyotshunoslikda ham ulkan xizmatlarni bajardi, navoiyshunoslikning birinchi namoyandalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Uning yuqoridagi millatparvarlik va vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan g'oyalari hozir ham tadbirkorlik, ma'naviyat va ma'rifikatni ravnaqtoptirishda, milliy g'oya va mafkurani shakllantirishda, xalqning o'zligini anglashida muhim ahamiyatga ega.

Xullas, bugungi kunda o'zbek falsafasiga e'tiborni qaratish shundan dalolat beradiki, u bizning davrimizgacha uzlucksiz ravishda madaniyat, inson tafakkuri va aql-zakovatining yuksalishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Lekinmustabid tuzum davrida ijtimoiy-falsafiy fikr tarixiga birtomonlama, sinfiy nuqtai nazardan

yondashildi, faqat kommunistik partiya mafkurasi talablariga to‘g‘ri keladigan g‘oya va fikrlarga e‘tibor berildi. 1917 yildagi Oktabr to‘ntarishidan so‘ng astasekin o‘tmish ma’naviyati, falsafiy fikr o‘rnini markscha-leninchamafkura egallay boshladi. Oliy o‘quv yurtlari, keng xalq ommasi orasida dialektik va tarixiy materializm va ilmiy ateizm targ‘ibqilindi, ularga to‘g‘ri kelmaydigan ta’limotlar qattiq tanqid ostiga olindi. Eng achinarlisi shuki, o‘z milliy madaniyati, urf-odativa an’analariga sodiq bo‘lgan, ularni saqlab qolishga intilgan ziyolilar, shoir va yozuvchilar quvg‘inga uchrab, qatag‘on qilindi. Lekin yuqorida bo‘lgan tazyiqlarga qaramay, madaniy-ma’naviy va ijtimoiy-falsafiy merosimizni o‘rganish, tadqiqqilish tamoman to‘xtab qolmadi. O‘tgan asrning 60-70-yillarda I.M. Mo‘minov, V. Zohidovlarning ijtimoiy-falsafiy fikr tarixi bo‘yicha tadqiqotlari katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ular Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ali Qushchi, Mirzo Bedil va boshqalarning falsafiy dunyoqarashini tadqiq qildilar.

O‘zbekistonda birinchi bo‘lib, 1946 yilda Vohid Zohidov, ikkinchi bo‘lib 1950 yilda Ibroxim Mo‘minov falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olishgan bo‘lsalar-da, falsafa fanining ilk qaldirg‘ochlarining fikrlari ham cheklab qo‘yilgan edi. Shuning uchun ular o‘zbek falsafasi bormi yoki yo‘qmi degan savolni ochiq qo‘yish imkoniyatidan mahrum edilar.

Vohid Zohidov va Ibrohim Mo‘minov shaxslaridan boshlangan falsafani mustabid tuzum o‘ziga moslashtirgan va ko‘p jihatdan o‘z milliy ildizlaridan majburan uzilgan falsafa edi.

Milliy falsafa haqida masalaning bunday qo‘yilishining xech qanday g‘ayriilmiy yoki g‘ayriijtimoiy tomoni yo‘q. Chunki, O‘rta Osiyo – insoniyatning sharqdagi ilk madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan. Xitoy yoki Hindiston kabi qadimiy davrlardan o‘zbekning o‘z falsafiy maktablari, yo‘nalishlari va ta’limotlari bo‘lgan. Ularni izchillik bilan va sabr-toqat bilan o‘rganib, bir tizimga keltirish va shu asosda jahon falsafasiga “O‘zbek milliy falsafasi” degan tushunchani kiritish maqsadga muvofiqdir. “O‘zbek milliy maktabi” haqida so‘z yuritganda, u O‘rta Osiyo xalqlari falsafasining tarkibiy qismi ekanligi diqqat doirasidan chetda qolmasligi zarur.

O'rta Osiyo falsafasi va birinchi navbatda o'zbek falsafasi o'tmishda jiddiy kamsitilgan. Chunki, o'zbek falsafasining nihoyatda muhim qismi – diniy falsafa et mish yildan ortiq davr ichida to'la ravishda inkor etildi. Mustabid tuzumning asosiy aqidalaridan biri bo'lgan "din xalq uchun afyundir" degan ta'rif asosida bu sohani tadqiq etish ta'qiqlangan. Diniy munosabatlар Zardushtiylikda qadimdan mavjud bo'lgan. Islom dini milliy hududimizga kirib kelgandan so'ngi o'n ikki-o'n uch asr davomida esa islom dinini asoslaydigan markazga aylanadi. Ahmad al-Buxoriy, at-Termiziyy, Najmuddin Kubro, Hoja Ahmad Yassaviy, Imom Moturidiy, Bahouddin Naqshband va ularning safdoshlari, tengdoshlari, Yuzlab va minglab shogirdlari ijodini o'rganish o'zbek falsafasi naqadar boy va rang-barang iste'dod egalariga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek falsafasi bizning buyuk bobolarimiz asarlari va yutuqlarining tarixiy butun dunyoviy ahamiyatini hisobga olgan holda, ayni vaqtida o'z milliy ongi va g'ururini ular amalga oshirgan ishlar orgiga yashirmagan holda, shuni ta'kidlay oladiki, umuminsoniy qadriyatlar ustivorligi hech bir alohida millatga, hech bir alohida jahon mintaqsga, Sharqqa ham G'arbga ham, Shimol va Janubga ham qarashli hisoblanmaydi. Umuminsoniy qadriyatlarni yaratishda Shimol ham, Janub ham, Sharqu G'arb ham, ya'ni u yoki bu darajada dunyodagi barcha xalqlar va millatlar, shu jumladan o'zbeklar ham ishtirok etganlar.

Bugungi kunda yaratilishi mumkin bo'lgan o'zbek falsafasining ikki qanoti bo'lishi uning ikki parvozini ta'min etadi. Birinchidan, ilmiy-tabiiy tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi faylasuflar. Ular jahonda birinchi bo'lib, Yerning dumaloq ekanligini, Atlantika okeani ortida yuoshqa qit'a bor ekanligini qayd etdilar, formakologiyadan tortib to geologiya, astronomiya kabi fanlargacha yangi turtki berdilar, insonni davolashning butun bir qomusiy ma'lumotnomasini yaratib, Ovropa xalqlarining ko'payishiga yo'l ochib berdilar. IX-XV asrlar oralig'ida, Ovropa o'rta asrlar inkvizitsiyasi changilida bo'lgan davrda, ularning universitetlarida yoshlar Alfraganus (al-Farg'oniy)ning, Algoritm (al-Xorazmiy)ning, Avitsenna (Ibn Sini)ning kitoblari, Al-Jabr (Algebra), handasa (geometriya), tibbiyot va dorivorlik bo'yicha kundalik qo'llanma va darsliklar

bo‘lib xizmat qildi. XV asrning oxiridan boshlab ovropaliklar okean muhiti va qa’riga qo‘rmasdan chiqa boshlagan bo‘lsalar, buning sababi shundan iboratki, bizning ajdodlarimizning asarlari ularga rahnamo bo‘lib, ovropaliklarning ko‘payishi, savodli bo‘lishi va okeanlarni zabit etuvchi bo‘lib etishishiga dastak va tayanch bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbek xalqi o‘z madaniy boyliklari bilan jahon madaniy taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shganligi e’tirof etilgan. O‘zbek xalqining madaniy merosiny chuqur va atroflicha tadqiq etish va keng yoritish – kerakli, zaruriy, foydali va shart bo‘lgan ishlardandir.

O‘zbek milliy falsafasining ikkinchi qanoti – diniy falsafadir. Bu falsafaning olamshumul ahamiyati shundan iboratki, unda inson, jamiyat, axloq, inson va jamiyat munosabatlari, inson va axloq masalalari nihoyatda chuqur va keng qamrovda tahlil qilingan. Jumladan, Zardushtiylikning muqallas kitobi bo‘lgan “Avesto”da inson ulug‘lanib, osmonga ko‘tarilgan. Uning aqliliga hamdu sanolar o‘qilgan.buyuk kalomda insonga beba ho na’matlar ato qilinganligi zikr etiladi. “Avesto”da inson ulug‘lanar ekan, sharaflanar ekan, buning boyisi, ularda insoniylik fazilatlarining jamlanganligidir.

Diniy falsafani jiddiy o‘rganishdan maqsad unga ko‘r-ko‘rona sodiq bo‘lish emas, balki, diniy falsafani targ‘ib etgan nazariy va amaliy jihatlarni zamonga tatbiq etishdir. O‘zbekistonni davrimizning rivojlangan mamlakatlardan biriga aylantirish kabi oliy janob maqsadlarga xizmat qilishdir.

Yuqorida zikr etilgan fikrlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, bugungi kunda o‘zbek falsafasi ochilmagan qo‘riq, uning nazariy durdonalarini millatning va insoniyatning umumiy boyligiga aylantirish O‘zbekiston faylasuflarining muqaddas burchidir.

Nazorat uchun savollar:

1. O‘zbek falsafasi deganda nimani tushunasizbormi?
2. Sharqdagi ilk madaniyat markazlaridan biri haqida gapirib bering.
3. O‘zbek falsafasining ikki qanoti deganda nimani tushunasiz.
4. O‘zbek falsafasi o‘tmishda nima uchun kamsitilgan.

5. O‘zbek falsafasining ikkinchi qanoti haqida gapirib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – provard maqsadimizdir. 8-kitob. –T.: O‘zbekiston. 2000. B- 510
- 2.Xonazarov Q. O‘zbek falsafasi bormi? Muloqot jurnali. 2001. № 3. –B. 3
3. Shermuhammedov S. Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot. –T.: Fan. 2005. –B. 5
4. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild. –T.: Ma’naviyat. 2006. –B. 6, 9, 50
5. Xondamir. Makorim ul-axloq. –B. 40-41

2-MAVZU: Globallashuv sharoitida yangicha tafakkur shakllanishini rivojlantirish zarurati (2 soat)

Reja:

1. Globallashuv sharoitida yangicha tafakkurning zarurligi.
2. Yangicha tafakkurni shakllantirishning falsafiy omillari.
3. Yangicha tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda milliy mentalitet.

Kalit so‘zlar: globallashuv, integratsiyalashuv, yangicha tafakkur, fundamental, global muammolar, mentalitet, milliy mentalitet, ma’naviy salohiyat, tahlil kuchi, aqliy qobiliyat va ruhiy quvvat.

1970-yillardan globallashuv o‘z rivojlanishining yangi bosqichiga ko‘tarildi va serqirra tus oldi. Dunyo miqyosidagi tahdidlar va globallashuv jarayonlarini aholining keng qatlamlari anglab etishi, shuningdek, jahon hamjamiyati va unga mos keluvchi qadriyatlarga munosabat, madaniyat, turmush tarzining shakllanishi mazkur bosqichga xos xususiyat hisoblanadi. Ayni shu davrda axborot-

texnologiya inqilobining rivojlanishi jadallahshdi, mif, din, falsafa, fan, ekologiya bilan bir qatorda global ong ijtimoiy ongning yana bir shakli sifatida paydo bo'ldi.

Globallashuv jarayonlarini nazariy jihatdan anglab etish va global muammolarni bartaraf etish nafaqat o'ta og'ir va uzoq davom etadigan, balki kutilgan natijalargaqanday erishish mumkinligi xususida hali aniq javoblar va uzilkesil echimlarga ega bo'lмаган ishdir. Ayni vaqtda aksariyat tadqiqotchilar global tangliklarni bartaraf etish imkoniyatini ommaviy ongda yangicha axloqning shakllanishi va mustahkamlanishi, madaniyatning rivojlanishi va uning insonparvarlashuvi bilan bog'lamoqdalar. Buning uchun jiddiy asoslar bor, zero odamlarning fe'l atvori, xatti-harakatlari, pirovard natijada esa ular erishishga harakat qiladigan natija asosan ularning hayotga munosabati va fikrlash tarzi bilan belgilanadi. Ayni vaqtda asrlar mobaynida saqlanib qolayotgan dunyo haqidagi tasavvurlarni o'zgartirish, qotib qolgan tafakkur andozalarini bartaraf etish va odamlar ongida insoniylikning yangicha tamoyillarini shakllantirishning o'zi umuminsoniy muammolar echimi emasligi ham ravshan. Bu mazkur muammolarni bartaraf etish yo'lidagi zarur, lekin faqat birinchi qadam va u muttasil o'zgaruvchi vaziyatga mosbo'lgan va hozirgi davr ruhini aniq aks ettiradigan tafakkurning shakllanishi bilan bog'liq. Bunday yangilangan tafakkur zamirida faqat so'nggi yuz yillikka xos bo'lgan jamiyat hayoti internatsionallashuvining keskin o'sishi bilan belgilanadigan ijtimoiy munosabatlarning yangicha mazmuni va shakl-shamoyillarini aks ettiruvchi yangicha insoniylik yotishi lozim. Mazkur yangicha insoniylik global ongi shakllantirishga qaratilishi va kamida uch asosiy negiz: globallik tuyg'usi, zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik va insonning asosiy huquqlarini tan olishdan kelib chiqadiganadolatparvarlikni o'z ichiga olishi darkor.

Globallashuvning navbatdagi bosqichi dunyo miqyosidagi aloqalar, tuzilmalar va munosabatlar yuzaga kelishi bilan bog'liq. Mazkur jarayonlar natijasida dunyo o'zining deyarli barcha jihatlarida yaxlit bir butun organizm sifatida uzil-kesil shakllandı. Fundamental deb nomlanuvchi bunday globallashuvning ilk alomatlari XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi, XX

asr o‘rtalariga kelib esa u to‘la darajada borliqqa aylandi. Yechilmagan ziddiyatlar va umumiylar bog‘liqlikning kuchayishi insoniyat tarixidagi eng katta va davomli urush – Ikkinchiji jahon urushi boshlanishiga olib keldi. Bu safar dunyo miqyosidagi urushda Yer aholisining to‘rtadan uch qismi ishtirok etdi, Birinchi jahon urushiga qaraganda bir necha baravar ko‘proq qurbanlar berildi.

Dunyo miqyosidagi jarayonlarning globallashuvi nuqtai nazaridan bu urushlarning ikkalasi ham amalda ayni bir global urushning turli bosqichlari edi. Ularning o‘rtasidagi farq faqat miqdor ko‘rsatkichlarida ko‘rinadi. Mohiyat e’tibori bilan, ikkala urush ham ayni bir masalalarni echish – XX asr boshida bo‘lib olingan, yaxlit va o‘zaro bog‘langan dunyoni qayta bo‘lib olishga qaratilgan edi. Urush olib borish usullari ham deyarli bir edi, farqi esa, texnik jihozlanish darajasi va miqyosi Ikkinchiji jahon urushida bir necha baravar yuqori, mafkuraviy ta’sir esa avvalgi urushda yo mavjud bo‘lmagan radio, telefon, yo hali yaxshi rivojlanmagan aviatsiya, dengiz, temir yo‘l, avtomobil transporti aloqa va kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish bilan ko‘p karra kuchaytirilishida namoyon bo‘ldi.

Global (umumbashariy) muammolar – bu shunday muammolarki, ular o‘z ko‘lami, qamrovi jihatidan xilma-xil va butun er shariga, butun insoniyatning manfaatlariga dahl qiladi, uning kelajagiga xavf soladi hamda ular butun xalqaro hamjamiyatning ishtiroki bilangina hal etilishi mumkin. Global muammolar XX asr mahsulidir va ularning paydo bo‘lishi inson faoliyati bilan bog‘liq. Global muammolar paydo bo‘lishining sababi inson faoliyati bilan bugungi tabiatdagi va jamiyatdagi ahvol o‘rtasidagi qarama-qarshilikning o‘sib borishidir. Global muammolar u yoki bu darajada ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy nuqtai-nazardan ilmiy tahlil etilgan. Ayni vaqtda davrimizning umumbashariy muammolarining falsafiy talqini ham ilmiy adabiyotlarda o‘z ifodasini topmoqda va bu “global muammolar falsafasi” deb nomlanuvchi falsafiy fan tarmog‘i vujudga kelishiga olib keldi.

Yangicha tafakkurning bugungi kundagi zaruriyati nafaqat insonning azaliy muammolari va g‘am-tashvishlarini, balki uningso‘nggi yillarda fan-texnika taraqqiyoti ta’sirida tobora jadalroq sur’atlarda, shujumladan dunyo

miqyosidao‘zgarayotgan realhayoti kundalik amaliyotinham aks ettiradi. Shu munosabatbilan yuzaga kelayotganyangi hodisalar, g‘ayrioddiy qiyinchiliklar va alohida sharoitlar olimlarning ham, faylasuflarning hame’tiborinitortmoqda. Bunday falsafaning fandan ustunligi shundaki – u o‘z xulosalarida tafsilotlar va muayyan dalillarga mahkam yopishib olmaydi, ayrim, uzuq-yuluq va o‘tkinchi narsalarni osongina chetlab o‘tadiki, bu unga asosiy e’tiborni ishning mohiyatiga qaratish, rivojlanishning eng muhim omillari va asosiy jarayonlarini qayd etish imkonini beradi.

Yangicha tafakkurning mazkur fazilatlari insonning ijtimoiy munosabatlar tizimida yoki “jamiyat-tabiat” tizimida yuzaga kelayotgan murakkab, kompleks vazifalarni hal qilishga majbur bo‘layotgan hozirgi sharoitlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan yangicha tafakkur muhim narsalarni ikkinchi darajali narsalardan, qonuniy narsalarni tasodifiy narsalardan farqlash, tarixiy rivojlanishda obyektiv jarayonlarning subyektiv omillardan farqi kabi usullari va metodlari va hozirgi vaqtda insoniyat duch kelgan olamshumul muammolarni nazariy anglab etish va amalda bartaraf etish uchun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon hamjamiyati o‘z rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo‘ygani, u avvalgi bosqichlardan nafaqat o‘zgarishlar miqyosi, balki faollik darjasи va universal xususiyati bilan ham farq qilishi ayon bo‘ldi. Bu o‘zgarishlarning butun majmui, shuningdek, ularning sabablari 1990-yillarda globallashuv (lot. globus – er kurrasi) deb nomlandi.

Globallashuv jamiyat hayotining turli jahbalarida butun Yer sayyorasi uchun yagona bo‘lgan tuzilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashuv jarayonidir. Shuningdek globallashuv global makonning tutashligi, yagona jahon xo‘jaligi, umumiy ekologik o‘zaro aloqadorlik, global kommunikatsiyalar va shu kabilar bilan tavsiflanadi.

Jahon rivojlanishining eng yangi tendensiyalarini anglab etish borasidagi ko‘p sonli sa’y-harakatlar globallashuv jarayonlarining mohiyati, tendensiyalari va sabablarini, ular ta’sirida yuzaga kelayotgan global Muammolarni aniqlash va bu

jarayonlarning oqibatlarini anglab etishga qaratilgan fanlararo ilmiy tadqiqotlar sohasi – globalistika paydo bo‘lishiga olib keldi.

Kengroq ma’noda “globalistika” atamasi globallashuvning turli jihatlari va global muammolarga oid ilmiy, falsafiy, madaniy va amaliy tadqiqotlarni, jumladan, ularning olingan natijalarini, shuningdek, ularni ayrim davlatlar darajasida ham, xalqaro miqyosida ham iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiyabhalarda amalga joriy etish borasidagi amaliy faoliyatni ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Globallashuvning navbatdagi bosqichi dunyo miqyosidagi aloqalar, tuzilmalar va munosabatlar yuzaga kelishi bilan bog‘liq. Mazkur jarayonlar natijasida dunyo o‘zining deyarli barcha jihatlarida yaxlit bir butun organizm sifatida uzil-kesil shakllandi. Fundamental deb nomlanuvchi bunday globallashuvning ilk alomatlari XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘ldi, XX asr o‘rtalariga kelib esa u to‘la darajada borliqqa aylandi. Ayni shu davrda dunyoni iqtisodiy bo‘lib olish yakunlandi va buning natijasida turli mamlakatlar va xalqlarning kuchayib borayotgan o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqadigan mutlaqo yangicha tusdagi keskin xalqaro muammolar yuzaga keldi. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy hayotni, balki aloqa va kommunikatsiya vositalarini, shuningdek ma’naviy jabha – madaniyat, fan va falsafani ham qamrab oldi.

Og‘ir va murakkab vazifalarni echishda insonga fan doim yordam bergen. Bir paytlar erishib bo‘lmaydigan, inson imkoniyatlari darajasidan Tashqarida bo‘lib tuyulgan narsalarning aksariyatiga aynan fan yordamida erishilgan. Ayni shu sababli global muammolar xavf solayotgani haqidagi ilk ogohlantirishlarning o‘ziyoq odamlarni fanga o‘z e’tiborini qaratishga, olimlarni esa bu muammolarni echish yo‘llarini izlashga majbur qildi.

Globallashuvning asosiy xususiyati axborot jarayonlarini tezkorlik bilan tarqalishiga, axborotlar masalasida chegaralarni “yuvilishida”(yo‘q bo‘lishida) maqsadlarning axamiyati bo‘lmasligida ko‘rinadi. Globallashuv jarayoni ko‘p qirrali bo‘lib, u hamma sohani qamrab oladi va ularning yaqinlashuviga xizmat qiladi. “Shu ma’noda, globallashuv – bu avvalo hayot sur’atlarining beqiyos

darajada tezlashuvi demakdir”.

Globallashuv dunyo miqyosidagi aloqalar, tuzilmalar va munosabatlar yuzaga kelishi bilan bog‘liq. Mazkur jarayonlar natijasida dunyo o‘zining deyarli barcha jihatlarida yaxlit bir butun organizm sifatida uzil-kesil shakllandi. Fundamental deb nomlanuvchi bunday globallashuvning ilk alomatlari XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘ldi, XX asr o‘rtalariga kelib esa u to‘la darajada borliqqa aylandi.

Globallashuv jarayoni obyektiv va qonuniy jarayon bo‘lib, o‘ziga xos bir qancha ijobiy xususiyatlarga ega. Bu jarayon birinchi galda davlatga xalqaro maydonga erkin chiqishiga, boshqalar bilan yaqindan xamkorlik olib borishiga va o‘z milliy manfaatlarini turli xil xalqaro va nodavlat tashkilotlari doirasida ta’minalashga keng imkoniyatlar beradi.

Shuni aytish kerakki, vaqt o‘tishi bilan globallashuv jarayonining o‘ziga xos ijobiy tomonlari bilan birga bir qator salbiy jixatlari xam namoyon bo‘la boshlaydi. Davlatlarning bir-biriga nisbatan sezilarli darajada o‘sishi shuni ko‘rsatmoqdaki, bir mintaqadagi xox, salbiy, xox ijobiy voqeа-xodisalar bo‘lsin globallashuv jarayoni dunyoning boshqa bir mintaqasiga juda tez tarqalib o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Buning oqibatida, mintaqasi xavfsizligi va barqarorligida jiddiy tahdidlar vujudga keladi. Vaziyatning keskinlashuvi tashqi taxidlarning ichki tahdidlar bilan, shuningdek, an’anaviy tahdidlar bilan o‘zaro qo‘shilishi, ular orasidagi masofaning yaqinlashuvi xamda ularning o‘zaro bog‘liqligi o‘sib borishi milliy mintaqaviy xavfsizlikni ta’minalashda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga bugungi kunda jaxon geosiyosatida geostrategik kuchlar muvozanatining o‘zgarishi, ko‘p qutbli markazlar yuzaga kelishi, ular orasidagi raqobat xamda ayrim davlatlarning dunyo xukmronligi uchun ochiqdan ochiq da’volari yangi mustaqil davlatlarda jamiyatni erkinlashtirish va xuquqiy demokratik davlat qurish jarayoniga, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minalashga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur tahdidlar esa zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi globallashuv va integratsiyalashuv natijasida kundan kunga milliy va mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka xavf solib boradi. Bu esa

geosiyosiy vaziyatni o‘zgarishi hamda raqobatning kuchayishi natijasida yuqorida ko‘rsatilgan omillardan tashqari ilgari kuzatilmagan taxdidlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Bugungi globallashuv asrida axborotga bo‘lgan talab har qachongidan ko‘ra kuchayib bormoqda. Shunday ekan, xolis va xaqqoniy axborotlarni tarqatish, ommanning bu maxsulotga bo‘lgan extiyojini qondirish xar qachongidan ko‘ra mazkur kunda dolzarb axamiyat kasb etadi. Ma’lumki, demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari, tele-radio kanallar odamlarni xolis va haqqoniy axborot etkazadigan, gumanistik qarashlar ilg‘or g‘oyalarni ifoda qiladigan erkin minbar sifatida e’tibor beriladigan vositadir.

Bugun jaxon miqyosida bo‘layotgan olamshumul o‘zgarishlar, iqtisodiy taraqqiyot, ilm fandagi inson axlini lol qoldiradigan yangiliklaru ixtiolar barcha-barchasi ommaviy axborot vositalari orqali ma’lum bo‘lmoqda. Demak, OAV, matbuot yaxshilikka, ezgulikka xizmat qilmoqda, lekin ming afsuslar bo‘lsinki, o‘tgan asrning oxirlari, XXI asrning dastlabki yillarida G‘arb matbuotida biz aytgan ezgulikka xizmat qilish o‘rniga boshqa buyurtmali “ezgulikka” xizmat qilish xollari ham kuzatilmoqda. Ayniqsa, bu holni sobiq ittifoq parokanda bo‘lgach, uning o‘rnida tashkil topgan mustaqil hamdo‘stlik davlatlarida, xususan, Markaziy Osiyo, ayniqsa, O‘zbekiston bilan bog‘liq jarayonlarda uchratish mumkin.

Globallahuvning avj olishi millatning milliylik “chegaralarini” yo‘q qilib yubormoqda, ommaviy ma’naviyatni shakllantirishga olib kelmoqda. Buning natijasida xar bir millatga xos bo‘lgan urf-odat, an’ana, qadriyatlar o‘z axamiyatini tobora “yo‘qota” borish xavfi yuzaga kelmoqda. Bu millatning ma’naviy qashshoqlashuvining sodir bo‘lishiga, ularning o‘zligini anglamaydigan manqurtlariga olib keluvchi tahdidlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, umuminsoniy ma’naviyat turli-tuman millatlarning o‘ziga xos boshqa millatlar uchun xam ma’naviy ozuqa bera oladigan qirralarini o‘zida mujassamlashtirganligi bois, tabiiy ravishda keng yoyilib boradi xamda jaxonda yashayotgan turli millatlarning ma’naviyati rivojlanishiga yordam

beradi.

Jamiyat zamonaviylashuvida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar, huquqiy munosabatlar muhim rol o‘ynashi bilan bir qatorda, ijtimoiy ong shakllari, ayniqsa, mafkura, kishilarning turmush tarzi, tafakkuri sifatida zamaonaviylashuv jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirishga ko‘mak beradi. Shunday ekan, millat va milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, ana’na va urfatlariga tahdid soladigan, uni o‘z ta’siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o‘z manfaati yo‘lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar. Shu ma’noda, bunday xavf-xatarlarga qarshi asosiy qurol sifatida yurtimizda yashayotgan har bir inson, avvalo, yosh avlodning har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga etishi uchun keng jamoatchilik va aholimiz o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko‘tarishning ahamiyati beqiyosdir.

Yangicha tafakkurni shakllantirishning falsafiy omillari sifatida O‘zbekistonning umumiy va yagona Vatan ekanligini tushunish, mustaqillikni mustahkamlash va mamlakat rivojiga o‘z hissasini qo‘shishiga intilishni o‘zida aks ettiradi. Shuningdek, yangi milliy tafakkurda kishilarning milliy-madaniy merosni asrab avaylash, jamiyatning madaniy-iqtisodiy kamolotiga intilish, millatparastlik va millatchilikka qarshi kurash, etnik munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlar va tamoyillarning ustuvorligi kabi maqsadlar ham namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, milliy manfaatlar, ehtiyojlarning umumiy maqsadlarga bo‘ysundirilganligi, milliy g‘urur, milliy o‘zlikni anglash jarayonlarining mamlakatning pirovard maqsadlarga xizmat qilishga yo‘naltirilganligi, siyosiy institutlar, partiyalar, jamoat tashkilotlari hamkorligi, diniy qavmlarning o‘zaro hamjihatligiga erishish ham zamonaviy jamiyatni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda yangi tafakkurni shakllantirish yana bir omillaridan biri bo‘lgan – o‘zbek xalqining g‘oyat boy ma’naviy-madaniy merosi, shu jumladan, o‘zbek falsafiy merosiga suyanib, jahon sivilizatsiyasi va muvaffaqiyatlaridan samarali foydalanishdir. Jahon sivilizatsiyasining o‘ziga xos eng muhim xususiyati fan va texnologiya yutuqlari inson turmush tarzining barcha jabhalariga jadallik

bilan kirib borayotganligi bilan ajralib turadi.

O‘zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning milliy tafakkurida insonparvarlik, ma’rifatparvarlik tushunchalari to‘daqonli mavjud bo‘lishi kerak. Bu tushunchalar bevosita qadriyat sifatida inson tanasiga singib ketishi lozim. Shundagina milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligiga asoslangan qudratli milliy tafakkur konsepsiyasini yaratishga bo‘lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib boradi.

O‘zbekistonda jamiyat modernizatsiyasi tamoyillari ijtimoiy hayotdagि o‘zgarishlar, islohotlar bilan hamohang uyg‘unligi, kishilar ongida ijtimoiy o‘zgarishlarning obyektiv in’ikosi tarzida vujudga kelishi, aholining mutlaq ko‘pchiligi uchun zaruriy iqtisodiy ma’naviy ehtiyojga aylanishi, ijtimoiy ong, ya’ni psixologik va milliy tuyg‘ularning uyg‘unligi sifatida namoyon bo‘ladi.

An’anaviy jamiyatlarning modernizatsiya bobidagi tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, iqtisodiy o‘zgarishlar va demokratik jarayonlarning fundamental ijtimoiy bazaga ega bo‘lishi bu jarayonning legitimlashuvi bilan ham bog‘liqdir. Bizning fikrimizcha, zamonaviy jamiyat shakllanishi jarayonida siyosiy partiyalarning jahonda yuzaga kelgan hozirgi zamon siyosiy jarayonlarda ahamiyati oshib borishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham, milliy tafakkur zamonaviy jamiyat haqidagi tasavvurlarni fuqarolar ongiga singdirishda alohida o‘rin egallaydi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda yangicha tafakkur mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, unda milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan siyosiy madaniyatni shakllantirish hamda bu jarayonda demokratiya, fikr va vijdon erkinligi, plyuralizm va inson haq-huquqlarini ta’minlash, gumanizm va umuminsoniy qadriyatlarga rioya qilib yashash tamoyilini jamiyat hayotining asosiy mezoniga aylantirish masalalarini hal etishda muhim omil sifatida katta ahamiyatga ega.

Endigi vazifa kishilarimizning mustaqil fikrlashga o‘rganishi, o‘ziga ishonchining orta borishidir. Chunki, tafakkur ozod bo‘lmasa ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutulmasa, inson to‘la ozod bo‘lmaydi. Shu jihatdan,

yangicha tafakkurning asosiy vazifalardan biri odamlarning milliy onggi, siyosiy madaniyatini yuksaltirish, kishilarda miliy g‘ururni o‘sirish, milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish singari zamonaviylashuv jarayonlari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masalalar ham kiradi. Mustaqillikni mustahkamlash bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshirishda, demokratik jamiyat qurish uchun uning ijtimoiy-iqtisodiy negizlarini yaratish, istiqlolning mohiyatini faol tarzda ijtimoiy ongga singdirish, milliy falsafani tiklash, muqaddas an’analarimizni anglash va har tomonlama rivojlantirish, istibdod davrida yuzaga kelgan illatlarni ijtimoiy hayotning barcha sohalaridan siqib chiqarish, shuningdek, mustaqillik, ozodlik, teng huquqlilik tuyg‘ularini singdirish kabi aniq vazifalarni o‘ziga qamrab oladi.

Demak, O‘zbekistonda modernizatsiya jarayonlarida yangicha tafakkur shakllantirishda quyidagi omillarlarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, jamiyatning muvaffaqiyatli modernizatsiyasi milliy tafakkur bilan uzviy bog‘liqdir. Binobarin, har qanday transformatsion jamiyat obyektiv ravishda muayyan tipdagи falsafaga ehtiyoj mavjuddir. Chunki, ijtimoiy o‘zgarishlar, siyosiy islohotlar maqsadi aholining keng qatlamlariga tushuntirilishi, fuqarolarning davlatga, ertangi kunga ishonchi paydo bo‘lishi, ularda ijtimoiy muammolar echimiga faol pozitsiyasi shakllantirilishi, umumiy konsensus va b. falsafiy omilni muqarrar ravishda taqozo etadi. Agar, jamiyat modernizatsiyasida milliy falsafa ikkinchi darajali maqsad va vazifalar tarzida qaralsa, bu hol, nafaqat asosiy jarayonlarga halaqit beradi, balki barcha o‘zgarishlarning to‘g‘ri amalgaga oshmasligiga olib keladi.

Ikkinchidan, o‘zbek milliy tafakkurining shakllanishi va doimiy takomilashtirilishi nihoyatda serqirra, chuqur, keng va mas’suliyatli vazifa ekanligi mutaxassislar tomonidan e’tirof etilgan. Shu ma’noda, milliy falsafa nafaqat ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, balki ma’naviy hayotning asoslarini o‘ziga xos tarzda mustahkamlaydi.

Uchinchidan, har qanday jamiyatda milliy falsafa ijtimoiy taraqqiyotning o‘ta muhim subyektiv omillaridan biri sifatida doimo muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, falsafada jamiyat ravnaqi ta’minlanishida umummanfaat va umumiyy

maqsadlar ifodalanadi. Shu nuqtai nazardan, jamiyat modernizatsiyasi, nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy asosga ega bo‘libgina qolmay, balki kuchli falsafiy negizga ham ega bo‘lmog‘i lozim.

“Mentalitet” tushunchasi lotinchadan olingan so‘z bo‘lib, jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan idtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvatidir. Tarixiy, jug‘rofiy, ijtimoiy shart-sharoitlar ta’sirida har bir millarning tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, voqeа va hodisalarni tahlil etish kuchi, aqliy qobiliyati va ruhiy quvvati turlicha bo‘ladi. Bu ko‘rsatgichlar bir millatda yorqinroq, ikkinchisida sustroq, ba’zilarida aksincha namoyon bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan bir millatning mentaliteti ikkinchi millatning mentalitetini inkor etmaydi.

O‘zbek millatining mentaliteti eng serqirra va mustahkamdir. Chunki o‘zbek millati bosib o‘tgan tarixiy yo‘li, jug‘rofiy yashash sharoiti, o‘z milliy hududining qulayligi, uning asrlar davomida tarixiy yo‘llar chorahasida istiqomat qilishi, o‘zbeklarning tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, tahlil kuchi, aqliy qobiliyati va ruhiy quvvati yuksak bo‘lishini ta’min etgan. Shu sababli O‘zbekistonda “Avesto” va “Qutadg‘u bilik”, “Alpomish”lar yaratilgan, insoniyatning qadriyatlar xazinasi milliy ulushlar bilan boyigan.

Millatning mentaliteti, tabiiyki, faqatgina qadriyatlar xazinasi bilan belgilanmaydi. Milliy mentalitet millatning kundalik hayotida uning o‘zini tutishi, bo‘layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga munosabiti, xulq-atvori, fe’li, xattiharakati orqali namoyon bo‘ladi. Bu narsalar yangicha tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishdakatta amaliy ahamiyatga ega, zero millat hayoti kundalik turmushda millionlarning minglab amaliy muammolarini hal etishdan tashkil topadi. Milliy mentalitetning o‘ziga xosligi har bir millatda ayricha namoyon bo‘ladi.

Sharq xalqlarining uzoq tarixi va milliy mijozи bilan yaqindan va diqqat bilan tanishar ekanmiz, yuqorida zikr etilgan fikrlar naqadar haqiqatga yaqin ekanligining shohidi bo‘lamiz. Osiyo xalqlarining hayotga, insonga, jamiyatga, o‘ziga va o‘zgaga, o‘zidan balanddagiga, o‘zidan pastdagiga, hayvonotga va

ziroatga munosabati ko‘p ming yillar davomida ana shunday mehnat yaratuvchilik, mehribonlik va osoyishtalik, har bir keskin sharoitda ham murosa-yu madora, andisha-yu mulohazaga o‘rin va vaqt topish aynan o‘zbek falsafasining o‘zagini tashkil qiladi.

O‘zbekni millat sifatidagi tabiat, fe’li, hulqi, mijoz har qadamda ana shu xislat va xususiyatlarni namoyon etib turadi. Millatimizning asrlar davomida shakllangan va sayqal topgan bu xususiyatlari shuning uchun ham hozirgi paytda nihoyatda mmuhim kasb etmoqdaki, millatning bu xususiyati davr taqozolariga monaddir.

XX asr davomidagi jahon urushlaridan, mustamlakachilikka qarshi va milliy ozodlik uchun kurashlardan, mafkuraviy asosdagi to‘qnashuvlar, ehtiroslar jazavasidan toliqqan insoniyat yangi asrda bu musibat va xusumatlarsiz yashash imkoniyatlarini qidirmoqda. Bunda, albatda, o‘zbek millati o‘zining falsafasi orqali erishishi mumkinligini ta’kidlash o‘rinlidir. Demak, o‘zbek millati o‘zi xos bo‘lgan va ezgulikka yo‘g‘irilgan xususiyatlarini mamlakat iqtisodiyoti va xalqning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirishga hamda takomillashtirishga sarf qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Globallashuv sharoitida yangicha tafakkur nima uchun zarur?
2. Yangicha tafakkurni shakllantirishning falsafiy omillari.
3. milliy mentalitet deganda nimani tushunasiz?
4. Yangicha tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda milliy mentalitet.
5. O‘zbekni millatining sifatlari haqida gapiring.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O‘zbekiston. 2000. –B. 3
2. Xonazarov Q. Milliy mentalitet – taraqqiyot omili. Muloqot jurnalı. 2000. –B. 3
3. Choriyev A. Ijtimoiy qiyofa. Muloqot jurnalı. 2001. –B. 9
4. Shermuhammedov S. Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot. –T.: Fan. 2005. –B. 5

3-MAVZU:XX asr o‘zbek falsafasi va uning rivojlanish strategiyasi (2 soat)

Reja:

1. XX asr o‘zbek falsafasining shakllanishi omillari.
2. XX asr o‘zbek falsafasining asoschilari.
- 3.Jamiyatning yangi taraqqiyoti bosqichida milliy falsafa matabining strategiyasi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik, istiqlol, ozodlik, jadid, ijtimoiy-siyosiy va milliy-ma’rifiy harakat, ilm-fan, taraqqiyat, falsafa, jug’rofiya, siyosat, diniy xurofot.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, milliy-ma’rifiy harakat XIX asming 80-yillariga kelib, sekin-asta Turkiston bo‘ylab yoyila boshladi. Bu ijtimoiy-milliy harakatga o‘sha davrning barcha sohalarda faoliyat olib borayotgan millat istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyat parvar kuchlar birlasha boshladilar. Shu asosda milliy harakatlardan bo‘lgan jadidchilik tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o‘ziga qulay zamin topdi. Ularning asosiy g‘oyalari va maqsadlari mamlakatni o‘rta asrlarga xos bo‘lgan qoloqlik va diniy xurofotlardan ozod etish, shariatni isloq qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish va shu asosda mustaqil hukumatni barpo etish uchun kurashdan iborat bo‘lgan edi. Ana shu asosda o‘zbek falsafasining yangi ildizlari kurtak ocha boshladi.

Mamlakatni qoloqlikdan, turg‘unlikdan olib chiqish maqsadida ishni maktab va ta’lim islohotidan boshlagan jadidlar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan qator yirik muammolarga duch keldilar. Bu jarayonda jadidchilik harakatining o‘zi ham, unga bo‘lgan munosabat ham o‘ziga xos takomillashuv evolyutsiyasini o‘taydi. U tor ma’rifiy harakatdan keng ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy harakatga aylandi.

Milliy taraqqiyparvarlar o‘z faoliyatida davlat va uning qurilishidan tortib, jamiyat va uning ma’naviy hayotigacha bo‘lgan barcha masalalarni qamrab olishadi.

Jadid namoyandalari ilgari surgan asosiy g‘oya ma’rifatparvarlik va milliy istiqlol erishish bo‘lgan. Bularni ro‘yobga chiqarish uchun ular milliy dunyoqarashni shakllantirish zarurligini ham amalda, ham ilm-fanda va madaniy bahslarda ko‘rsata oldilar.

Tariximiz, madaniyatimiz, dinimizga aloqador bir varaq qo‘lyozma bo‘lsa ham, ularni to‘plash, xalqimizni, yoshlarimizni ular (manbalar) bilan tanishtirish, o‘zbekning qanday buyuk va betakror merosi borligini anglatish, farzandlarimizni shu ulug‘ merosga munosib etib tarbiyalash kabilar o‘zbek falsafasiningshakllanishi omillaridan biridir.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida barcha o‘lkalarda xur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan tashkil etilgan madaniy-ma’rifiy jamiyat va uyushmalardan jadid harakatlari shakllandi. Jumladan, chorizm mustamlakasi davrida ma’rifat g‘oyasini baland ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yorqin misol bo‘la oladi.

XX asr o‘zbek falsafasining asoschilari bo‘lgan Obidjon Maxmudov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Cho‘lpon, Ishoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda kabi ma’rifatparvarlar, fidoyi insonlar o‘z shaxsiy manfaati, huzur-halovlaridan kechib, el-ulus manfaati, yurtni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o‘chmaydi.

Turkistonda hukm surgan favqulotda qaloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashagan xalqlarni ma’rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o‘tkazish hamda pirovardida erk va hurriyat g‘oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadida jadidlar tarixiy vaziyat taqazosi bilan o‘z harakatlarini boshlaydilar. Jadidlarning aksar vakillari yoshlarga dastavval diniy ta’lim bilan bir qatorda dunyoviy fanlar, shu jumladan, falsafa, jug‘rofiya, siyosat va aniq fanlarni o‘qitishni kun tartibiga qo‘ydilar. Ular musulmon maktablarining ta’lim usuli va dasturlarini isloh qilib, yangicha usuldagagi maktablarni ochdilar.

Turkiston jadidchilik harakatining ilg‘or vakili, yirik sarmoyador, noshir va

jamoat arbobi, asli Marg‘ilonlik Obidjon Mahmudov birinchilardan bo‘lib 1914 yilda Qo‘qonda bosmaxona tashkil qiladi. Shuningdek, 1914-1917 yillar mobaynida Qo‘qonda Obidjon Mahmudov o‘zining muharrirligida nashr qilingan “Sadoi Turkiston”, “Tirik so‘z”, rus tilida chiqqan “Ferganskoye exo” gazetalarida millat dilidagi gaplarni o‘z sahifalariga ko‘chirish bilan kifoyalanganmay, qanday ishlarni birinchi navbatda amalga oshirish masalasini ko‘rsatib beradi.

XX asr boshlarida sodir bo‘layotgan muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalar Hamza hayotiga, uning ijodkor sifatida shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. 1905 yildagi inqilobiy harakatlar Rusiyaning chekka o‘lkalari xalqlarida ma’rifat, ozodlik, istiqlol sari intilishlariga turtki bo‘ldi. Uning ijodiga, ayniqsa, Ismoilbek Gasprinskiyning “Tarjimon”, Fotih Karimiyning “Vaqt” gazetalari, Rizo Faxriddinning “Sho‘ro” jurnali, shu bilan birga, o‘zbek tilida Toshkentda chiqa boshlagan Ismoil Obidiyning “Taraqqiy”, Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘lining “Xurshid”, Abdulla Avloniyning “Shuhrat” gazetalari kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ular bilan aloqa o‘rnatish orqali Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘zining dastlabki she’r va maqolalarini mazkur gazeta va jurnallarda chop ettira boshladi.

1914 yil 11 sentabrda jadidchilik harakatining buyuk rahnamosi Ismoilbek Gasprali vafoti munosabati bilan hamma jadid ijodkorlari singari Hamza ham o‘z hamdardligini bildirib, “Yavmul-vafot” (Sadoyi Farg‘ona, 1914 yil 24 sentabr) maqolasini va “Marsiya” (Sadoyi Farg‘ona, 1914 yil 28 sentabr) she’rini e’lon qiladi.

Hamzaning tashabbusi bilan 1914 yilda dastlab Marg‘ilonda, keyin esa Qo‘qonda usuli jadid maktablari ochiladi. O‘zi ochgan usuli jadid maktablari uchun “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” kabi darsliklarni yaratadi. 1915 yilga kelib Hamza qo‘qonlik ma’rifatchilar bilan hamkorlikda usuli jadid maktablari uchun darsliklar nashr qilish, o‘quvchilarni Toshkent va boshqa shaharlarda bosmadan chiqqan darsliklar bilan ta’minlash maqsadida “G‘ayrat” kitobxonasini tashkil qiladi. Bu kitobxonada Saidrasul Saidazizovning “Ustozi avval”, Munavvarqorining “Adibi avval”, “Adibi soniy”, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdulla Avloniyarning darsliklari ham ko‘p nushalarda bo‘lgan. Hamza ham

boshqa jadid namoyondalari singari o‘zining sahma asarlari bilan alohida ajralib turadi. 1915 yilda yozilgan “Zaharli hayot yohud ishq qurbanlari”, 1917 yilda yozilgan “O‘ch”, “Muhtoriyat yoki avtonomiya”, 1918 yilda yozilgan “Kim to‘g‘ri?”, “Boy ila xizmatchi” dramalari shular jumlasidandir.

Hamza o‘zbek falsafasini musiqa, xalq kuylari vositasida, qo‘shiqlar shaklida xalq qalbiga tezroq va ta’sirliroq kirib borishi mumkinligini yaxshi tushungan. Shoir o‘zining birinchi Jahon urushi arafasida yozgan “Yig‘la Turkiston” she’rida millatni jaholat, istibdod, ilmsizlik tufayli faje’ ahvolga tushgan Turkistonni yig‘lashga da’vat etadi: sen shunday yig‘laginki, xatto “ruhsiz tanlar tebrasin”, seni shunday ahvolga solgan, o‘zi zillatga, xorlikka botgan millat uyg‘onsin! - deb quyidagi satrlarni bitadi:

Darig‘ tutmang ilm uchun ketsa molu jon,
O‘quv farzligi ming yo‘l Qur’onda farmon,
Ma’rifatsiz tonulmas ahkomu imon,
Ilmsizga aytulmas komil musulmon.

Yig‘la, yig‘la, Turkiston, yig‘la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig‘la, Turkiston.

Shoirni qiynayotgan, uning faryod chekishga sabab bo‘layotgan narsa millatning ilmsizligi, bu ilmsizlik oqibatida o‘ziga “O‘lmasindan ilgari jismiga kafan bichgani” – deb quyidagi satrlarni yozadi:

Bo‘g‘zi sori to‘lguncha g‘aflat sharobin ichgan,
O‘lmasindan ilgari jismiga kafan bichgan,
Umid rishtasin kesub, oru nomusdan kechgan,
Bog‘lu qo‘ling, Turkiston, nobakorlarmu chechgan?

Ushbu she’rdagi satrlardan ko‘rinib turibdiki, Hamza millatning shakllanishida, ozodlikka erishishida ilm-fan, ma’rifat birlamchi ahamiyatga ega ekanligini, shuningdek, shu asosda millat tafakkurini uyg‘otish bilan o‘zbek falsafasini asoslarini ko‘rsatib beradi.

Hamzaning “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi”ga mansub “Safsar gul” to‘plamiga mardikorlikka olingan o‘zbekning yurtdan uzoqdagi xoru

zorlikda kechgan hayotini tasvirlovchi she’rlari kirgan. Ularda mardikorlarning ichki xis-tuyg‘ulari, el-yurtiga bo‘lgan cheksiz muhabbat, sog‘inchi o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, u mardikor olish voqeasi mustabid tuzumning millatni tahqirlovchi, uni abadiy tutqunlikda saqlovchi tadbiri ekanligini “Farg‘ona fojialari” asarining “Istibdod qurbonlari” qismida rus mustamlakachilarini ayovsiz fosh etadi.

Shoir o‘zining “Iydi qurban” (Sadoyi Turkiston), “E’tibor” (Sadoyi Farg‘ona) kabi maqolalarida millatni yaramas illatlardan, faqirlikdan, xurofotdan qutqaruvchi birdan-bir yo‘l ilm-ma’rifatdir, shuningdek, o‘zining falsafasiga ega bo‘lish kerak, degan g‘oyani ilgari suradi va boyu kambag‘al, ziyoliyu din peshvolari – hammalarining qo‘lni-qo‘lga berib, yangi usuli jadid maktablariga ko‘mak berishlarini ta’kidlaydi. Hamza milliy ayirmalarga, sinfiy tabaqalanishlarga keskin qarshi chiqadi.

Jadidchilik harakatining yana bir yirik vakili bo‘lgan Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpondir. Uning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan hodisalardan biri uning Zaki Validiy bilan tanishuvi bo‘lgan. 1912 yilda Zaki Validiyning “Turk va tatar tarixi” nomli kitobi nashr etilib, qisqa muddatlarda unga katta shuhrat olib keladi. Shu vaqtarda 15 yoshga to‘lgan Abdulhamid ham boshqalar qatori mazkur kitobni zo‘r ishtiyoq bilan o‘qib chiqadi. Kitobdan ta’sirlangan yosh shoir kitob muallifiga minnatdorchilik maktubini yozadi va uni Turkistonga taklif qiladi. Taqdirdning taqozosi bilan Qozon universiteti Zaki Validiyni 1913 yilning oxirida Farg‘ona vodiysiga ilmiy safarga yuboradi. Olim Andijonda ekan, Nazir To‘raql (mashhur Nazir To‘raqulov, davlat va jamoat arbobi) bilan birga Abdulhamidlar uyida bo‘ladi va ularning (Zaki Validiy va Cho‘lpon. A.Q.) do‘stona munosabatlari 1920 yillargacha davom etadi.

1914 yil Toshkentda Munavvar Qori Abdurashidxonov bilan tanishish Cho‘lponning milliy uyg‘onish harakati namoyandasasi sifatida shakllanishida muhim omil bo‘ldi. Ayniqsa, Turkiston aholisining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy qoloqlik sharoitida yashayotganining asosiy sababini Rossiyaning mustamlakachilik siyosatida ko‘rgan Cho‘lpon boshqa ma’rifatparvarlar qatori, o‘z

asarlari bilan xalqning madaniy va ma'rifiy saviyasini ko'tarishga kirishgan.

Cho'lponning adabiy ijodi 1913-1914 yillarni o'z ichiga olgan bo'lib, Andijonning ijtimoiy va madaniy hayoti haqida habarlar yozish bilan boshlanadi. Uning matbuotdagi dastlabki she'r va maqolalari 1914 yildan ko'rina boshlaydi. Jumladan, "Sadoi Turkiston" gazetasi 1914 yil 14 aprel sonida Munavvar Qori Abdurashidxonov 15 yashar Abdulhamidning "Turkistonli qardoshlarimizga" she'rini mushtariylarga havola etar ekan, u o'zining o'quvchilarni yoshgina qalbi bilan yorug'lik va ilm-ma'rifikatga, maorif yo'liga boshlanganidan mammunligini yashirmagan va uning kelajagiga katta umid bildirgan edi.

1917 yil Fevral inqilobining ro'y berishi taraqqiyat parvar ziyorolar dunyoqarashini o'zgartirib yubordi. Shu jumladan, Cho'lpon ham mustaqillik uchun kurash endi targ'ibiy-tashviqiy davridan amaliy faoliyat bosqichiga o'tganini anglatdi. Cho'lpon Turkiston muhtoriyat hukumatining barpo etilishi va uni shakllanishida faol ishtirok etib, muhtoriyatni sharaflovchi "Ozod turk bayrami" she'rini yozdi va bu she'r o'zbek davlatchiligi tarixida ilk madhiya bo'ldi.

Tarixiy davr va tarixiy sharoit Cho'lpondan muhabbat va tabiat lirkasidan ko'ra shu davrdagi o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvolini yaxshilashga qaratilgan asarlar yozishni taqazo etadi. Vatan va millat manfaati bilan yashagan shoir bolsheviklar olib borgan siyosatning mustamlakachilik mohiyatini fosh etishga, xalqni zulm va zo'ravonlikka qarshi hurriyat uchun kurashga da'vat etadigan she'rlar yozdi. Shuningdek, shu ma'noda 20-yillarda yozgan "Oydin kechalarda", "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz" kabi hikoyalarida o'zbek xotin-qizlarining ayanchli taqdirini ochib bergen.

Cho'lpon she'riyatining sevimli mavzularidan biri xotin-qizlar ozodligi bo'lgan. U bu masalani istiqlol uchun kurashning tarkibiy qismi deb bildi. Shoir nazdida istebdodning eng og'ir yuki ular zimmasiga tushgan edi. Birgina mustamlakachilik emas, o'z ichimizdagi mutaassiblik, jaholat azobini ko'proq ular tortganligini ta'kidlaydi. Ayollarga nisbatan shafqatsiz munosabatlarni ochib berishga harakat qiladi. Ular tilidan aytilgan quyidagi satrlarda ham juda katta

haqtqat borligi fikrlarimizni tasdiqlaydi.

Kulgan boshqalardir, yig‘lagan menman,

O‘ynagan boshqalar, ingragan menman.

Erk ertaklarini eshitgan boshqa,

Qullik qo‘srig‘ini tinglagan menman...

Bir tomonda, erk, mustaqillik uchun ketayotgan shafqatsiz kurash, ikkinchi tomondan, ochlik-qahatchilik. Bir tomonda, millat ichida yaratilgan “sinfiy kurash”, ikkinchi yoqda jaholat, mutaassiblik. Bunday holat shoirni larzaga soladi. Ayni paytda, bu kurashlarning har biri hayot-mamot kurashi bo‘lib, biri ikkinchisi bilan bog‘lanib ketgan edi. Lekin ahamiyatiga ko‘ra eng muhimi istiqlol, erk uchun ketayotgan kurash bo‘lgan. Shularni o‘ylagan shoir o‘zining “Ulug‘ yo‘lda” nomli she’rida yuksak maqsadlarga erishish yo‘llarini ko‘rsatishga harakat qilgan. Shu tariqa, u vatandosh va millatdoshlarini yuksak vijdon bilan yashashga undaydi.

Jadidchilik harakatining faol ishtirokchilardan yana biri milliy o‘yg‘onish davrining ijodkori, o‘zining milliy falsafasiga ega bo‘lgan ma’rifatparvar Ishoqxon to‘ra Ibratdir. Ishoqxon Ibratning Qo‘qon madrasalarida tahsil ko‘rgan yillari (1878-1886) Farg‘onada vodiysi madaniy hayotida, maorifida katta o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan davriga to‘g‘ri keldi. U Qo‘qon adabiy muhitining yirik namoyondalari Muqimiyy, Furqat, Muhyi, Zavqiy, Nodim, Haziniylar bilan ijodiy aloqada bo‘lgan.

Turkiston jadidlari kabi Ibrat ham o‘z xalqini mutaqqiy millatlar bilan teng ko‘rishni istagan. Buni mакtab-madrasalarni tubdan isloh qilish orqali erishish mumkinligi anglab etgan. Shuning uchun o‘zining bor kuch-g‘ayratini, bilimini jadid namoyondalari bilan birlashtirishga harakat qilgan. Jumladan, Ishoqxon to‘ra Ibrat Toshkent jadidlari rahbarlik qilgan “Sadoyi Turkiston”, Farg‘onadagi “Sadoyi Farg‘ona” kabi gazetalarida o‘z asarlari bilan ishtirok etgan.

Ishoqxon to‘ra Ibrat jaxon ilmi va madaniyatida yaratilgan har bir ilg‘or yangilikdan o‘z xalqini bahramand etishga harakat qildi. 1809 yili tashkil qilingan “Fotografiyai Ishoqiya”, 1910 yili To‘raqo‘rg‘on aholisi uchun bunyod etilgan istirohat bog‘i buni tasdiqlaydi.

Ishoqxon to‘ra Ibrat ijodidagi etakchi g‘oya ilm-ma’rifat, madaniyat va texnika yangiliklarini targ‘ib qilish g‘oyasidir. U xalqning iqtisodiy-madaniy hayotiga xizmat qiluvchi, uning mushkullarini engillashtiruvchi, uzog‘ini yaqin qiluvchi ilm-fanni, texnikani targ‘ib etdi. Ishoqxon to‘ra Ibrat mehnatkash xalq boshidagi og‘ir hayot, qashshoqlik, mamlakatdagi qaloqlikda, xalqning nodonlikda qolganining sabablarini aniqlashga, undan qutqarish yo‘llarini topishga harakat qildi. Bir necha taraqqiy etgan mamlakatlarda bo‘lgan Ibrat xalqni zulmatdan, mamlakatni qaloqlikdan qutqaruvchi birdan-bir yo‘l ilm-ma’rifatni egallash deb tushunadi.

Muhammadsharif So‘fizoda XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o‘zbek madaniyatining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri bo‘lib, ma’rifatparvar, murabbiy sifatida ham maorif va madaniyatimiz tarixida salmoqli o‘ringa ega. U o‘ninchи yillardayoq yangi usul jadid maktablarini ochib, bolalarga dars bergen, ilm-ma’rifatni keng xalq orasiga yoyishga jonbozlik ko‘rsatgan kishilardan biri sifatida Farg‘ona vodiysida shuxrat topdi. 1913 yilning oxirlariga kelib Chustda yangi usul jadid maktabini ochadi va uning peshtog‘iga “Men ul buyoqchimanki, maktab xumuda rang berib, qora chappalarni o‘n ikki oyda oq qilaman”, deb yozib qo‘ygan. Muhammadsharif So‘fizoda birgina “usuli jadid” maktabi muallimi emas, u avvalo, o‘zining falsafasiga ega bo‘lgan tikso‘z, haqiqatparast shoir bo‘lgan. Xula qilib aytish mumkinki, jadidlarning xatti-harakatlari o‘zbek falsafasini yangitdan shakillanishini boshlab berdi.

O‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib Ibroxim Mo‘minov va Vohid Zohidovfalsa fanlariga, jumladan, o‘zbek falsafasi asos soldilar. Shunday bo‘lsa-da, davr taqozosi bilan falsafa fani ilk qaldirg‘ochlarining fikrlari cheklab qo‘yilgan edi. Shuning uchun ham ular o‘zbek falsafasi bormi yoki yo‘qmi degan savolni ochiq qo‘yish imkoniyatidan mahrum edilar.

Ibroxim Mo‘minov va Vohid Zohidovshaxslaridan boshlangan o‘zbek falsafasini mustabid tuzum o‘ziga moslashtirgan va ko‘p jihatdan o‘z milliy ildizlaridan majburan uzilgan falsafa edi. Shunday bo‘lsa-da, ular Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-falsafiy fiikri tarixi masalalariga alohida e’tibor bera

boshlaydilar. Jumladan, 1933 yilda Ibrohim Mo'minovning "Alisher Navoiy buyuk ma'rifatchi" degan maqolasi bosilib chiqadi.

1943 yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining ta'sis majlisida Ibrohim Mo'minov akademianing muhbir a'zosi etib saylanadi. 1956 yilda akademianing akademigi va ayni paytda uning vitse-prezidenti bo'ladi. Ibrohim Mo'minov o'zining bilimini, boy hayotiy tajribasi va qobiliyatini respublikada ijtimoiy fanlarni yanada rivojlantirish sohasidagi vazifalarni bajarishga qaratadi.

Ibrohim Mo'minov rahbarligida 1960 yilda "O'zbekistonda progressiv ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixi materiallar" nomli asar nashr etiladi. Kitobda Markaziy Osiyo mutafakkirlari: Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Navoiy, Turdi, Mashrab, Bedil, Furqat, Muqimiylar, Zavqiy, Avaz O'tar o'g'li, Hamzalarning e'lon qilingan va qo'lyozma asarlari materiallaridan, ularning hayoti va ijodi to'g'risidagi qisqacha ma'lumotlar berilgan bo'lib, ular bugungi kunda o'zbek falsafasining asosini tashkil qilishda asosiy omil sifatida dasturil amal bo'lib xizmat qiladi.

Ibrohim Mo'minovning shogirdlari M.Xayrullayev, A.Valiyev, H.Po'latov, E.Yusupov, A.Ortiqovlar ham ustoz singari o'zbek falsafasining jonkuyar va ma'rifatparvar davomchilaridan bo'lib, O'zbekistonda milliy falsafani rivojlantirishga munosib hissalarini qo'shganlar.

Nazorat uchun savollar:

1. XX asr o'zbek falsafasiningshakllanishida jadidlarning o'rni masalasi.
2. Jadidlarning mamlakat oldidagi vazifalari nimalardan iborat bo'lgan.
3. O'zbek milliy falsafa maktabining strategiyasi.
4. XX asr o'zbek falsafasininggasoschilari.
5. XX asr o'zbek falsafasiningshakllanishi omillari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: O'zbekiston. 2017. T. 1. B- 471

2. Rasulov T. Shoir So‘fizoda haqida. (So‘fizoda. “Taronalar” kitobida). – T.: Ma’naviyat. 1968. B- 6
3. Zaki Validiy. Xotiralar. Anqara. 1999. //Nashrga tayyorlovchi Isanbika Tugan. B- 98-101
4. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2002. 3-tom. –T.: B- 519
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma’naviyat. 2008. B- 49
6. Milliy Uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. –T.: Ma’naviyat. 2004. B- 177-386-387-388-389

4-MAVZU: “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” o‘zbek falsafasining zamonaviy konsepsiysi (2 soat)

Reja:

1. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” konsepsiyasining mazmun-mohiyati.
2. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” o‘zbek falsafasining zamonaviy konsepsiysi ekanligi.
3. Yangi O‘zbekistonda o‘zbek falsafasiga munosabat.

Kalit so‘zlar: Uyg‘onish davri madaniyati, Musulmon renessansi yoki Sharq Uyg‘onish dari, Milliy uyg‘onish davri, milliy tiklanish, milliy yuksalish, falsafa, jadidchilik, ilm-fan, tafakkur, dogmatizm, jaholat, mutaassiblik.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyingi o‘tgan davr ichida mamlakatimizning barcha soxalarida bo‘lganidek, milliy-ma’naviy hayotimizda ham ulkan o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ayniqsa, millatimizning o‘zligini anglash jarayonlari, o‘z milliy-ma’naviy merosni o‘zlashtirish, milliy urch-odatlar,

an'analar, qadriyatlarimizni tiklash va muqaddas dinimizning ulkan imkoniyatlaridan baxramand bo'lish borasida ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi.

Milliy taraqqiyot – evolyutsion xarakterga ega, u millatning shakllanishi, takomillashishi va yuksalishi kabi uzluksiz jaraendir. Milliy tiklanish, millat taraqqiyoti tarixining ma'lum bir bosqichida ma'lum sabablar oqibatida boy berilgan salohiyatni qaytadan millat taraqqiyotiga yo'naltirish bilan bog'lik bo'lgan jarayondir.

Milliy tiklanish – u yoki bu millat hayotida sodir etiladigan, zo'ravonlik yo'li bilan uning avlod-ajdodlari tomonidan yaratilgan meros, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlardan mahrum etilgan, tarixiy xotirasi toptalgan, milliy o'zlikni anglashi cheklangan, manfaatlari, maqsadlari, paymol etilgan, tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichiga kelib esa o'z mustaqbilligini qo'lga kiritish natajasida milliy rivojlanish borasida ana shu boy berilgan imkoniyatlardan foydalanish, yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni milliy rivojlantirishga yo'naltirishga qaratilagan umummiliy faoliyatdir. Milliy tiklanishning asosiy yo'nalishi tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida u yoki bu millat tomonidan milliy taraqqiyot borasida boy berilgan imkoniyatlarini mustaqillikni qo'lga kiritish sharofati bilan yana milliy rivojlanishning asosiy manbaiga aylantirish borasidagi umummiliy va milliy o'zlikni anglash jarayoni faoliyati bilan bog'liqidir.

Milliy tiklanish deganda milliy o'zlik tuyg'usining uyg'onishi va tobora mustahkamlanib borishi tushuniladi. Milliy o'zlikni anglash mamlakat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi, milliy ong insonda Vatanga muhabbat his-tuyg'usini oshirishda, har tomonlama komil inson shaxsini tarbiyalashda bebahochki omildir.

Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari degan ulug' maqsad davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini kompleks rivojlantirishni nazarda tutadi. Milliy g'oyaning asosiy tushuncha va tamoyillari O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning bosh g'oyasidan kelib chiqadi va uni to'ldirib, boyitib boradi hamda xalqimiz qalbi va ongiga yanada chuqur singdirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston – ulkan tabiiy zahiralar, iqtisodiy va insoni salohiyatga boy mamlakat. Shuning uchun milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari borishda iqtisodiyotni, butun mamlakatni innovatsion asosda rivojlantirish muhim rol uynaydi. Bugungi kundadunyoda innovatsion g‘oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz biror-bir soha rivojini tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘zbekistonning eng katta boyligi – bu xalqning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir.

Prezintemiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan da’vatkor g‘oya hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Biz ayni shu asosda xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolatni ta’minalash, innovatsion taraqqiyot borasida muhim qadamlarni qo‘ymoqdamiz.

Milliy yuksalish g‘oyasining asosiy tamoyillari uning ilmiy jihatdan asoslangani va muntazamligi, ochiqlik va bag‘rikenglik, tarixiylik va zamонавиylıк, universallik va moslashuvchanlik qabi xususiyatlarga ega ekanligi bilan ifodalanadi va quyidagilarda o‘z aksini topadi:

- millati, tili va dinidan qat’iy nazar, O‘zbekistonning barcha fuqarolari manfaatlari va orzu-intilishlarini aks ettirish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini, millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikni ta’minalash;
- qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklarini eng oliv qadriyat darajasiga ko‘tarish;
- oshkorlik va fikrlar xilma-xilligiga rioya etish;
- shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari hamda mas’uliyati uyg‘unligiga erishish;
- farovon hayot barpo etishga qaratilgan iqtisodiy omillar samaradorligini oshirish;
- milliy yuksalishg‘oyasini umummilliylar harakatga aylantirish.

Milliy yuksalish g‘oyasi xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatini ro‘yobga chiqarib, O‘zbekistonning yangi tarixida uchinchi renessans davrining boshlanishiga xizmat qiladi.

Har bir fanning o‘z tadqiqot obyekti bo‘lganidek, bugungi kun falsafasining ham o‘z predmeti va o‘rganish obyekti bor, shuningdek, ma’lum bir maqsad sari u jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti tarixida o‘ziga xos muammoni echimini topishga harakat qiladi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgandan so‘ng falsafaning o‘rganish obyekti kengaya boshladi. Shu kungacha falsafa har bir davrning o‘ziga xos xususiyatini va ularning rivojlanish tarixini o‘rgangan bo‘lsa, bugungi kun falsafasi esa Mustaqillik O‘zbekistonning Uyg‘onish davri madaniyati rivojalanish bosqichlarini o‘rganishini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishi kerak. Chunki, mamlakatimiz hududida yashab, o‘zining bilimi va dunyoqarashi bilan asrlar davomida jaxon ilm-fani taraqqiyotiga, ya’ni Uyg‘onishiga beqiyos xissa qo‘sib kelgan mutafakkir-olimlarimizning faoliyatini falsafiy jihatdan yana bir bor ko‘rib chiqish foydadan xoli bo‘lmaydi.

Uyg‘onish (Renessans) tushunchasi Markaziy Osiyo, Eron, Xitoy, G‘arbiy Yevropada yuz bergen alohida madaniy va tafakkur taraqqiyoti bo‘lib, qadim antik adabiyotga nisbatan olingan. “Renessans” atamasi dastlab Italiyadagi madaniy-ma’naviy yuksalish(14-16 asrlar)ga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lsa-da, Renessans, ya’ni Uyg‘onish faqat Yevropaga xos emasligini ham aytib o‘tish lozim. Shuningdek, Uyg‘onish davrining o‘ziga xos asosiy xususiyatlari: Tafakkurda va ilmu ijodda dogmatizm, jaholat va mutaassiblikni yorib o‘tib, insonni ulug‘lash, uning iste’dodi, aqliy-fikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ekanligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, bunday holat mamlakatimiz madaniy tarixida bir necha bor bo‘lganligiga amin bo‘lamiz.

Ma’lumki, bugungi kungacha O‘rta Osiyo bir necha Uyg‘onish davrlarni boshdan kechirgan. Jumladan, birinchi Uyg‘onish davri IX-XII asrlarni, ikkinchi Uyg‘onish davri XIV-XVI asrlarni va uning davomi sifatida XIX asr oxiri XX asr boshlarda mamlakatimiz bo‘ylab faoliyat olib borgan jadidchilik harakatlarini hamda u O‘zbekiston mustaqilligi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘z ichiga XX asr oxiri XXI asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy taraqqiyotni qamrab oladi. Ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda faylasuflar va adabiyotshunoslar

olimlarimiz mamlakatimizda ro'y bergan Uyg'onish davri madaniyatini o'ziga xos yo'l bilan o'rganib kelmoqdalar.

Endi mamlakatimiz hududida bugungi kungacha bo'lgan Uyg'onish davri madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilamiz.

O'rta Osiyoda birinchi Uyg'onish davri(IX-XII asrlar) o'zining dunyo tan olgan mutafakkirlari, olimlari bilan alohida ajralib turadi. Jumladan, insoniyat tarixidagi ilk Uyg'onish davrining eng zabardast va kuchli namoyandasi, o'z zamonasining fundamental fan asoschilaridan Muhammad Muso Horazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Forobiy kabi allomalarimiz asosiy e'tiborni olam mohiyatlarini bilish bilan bir qatorda ilm-fan taraqqiyotining rivojlanishiga, shuningdek, bashariyat dunyoqarashi va ma'naviyatining rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatdilar. Ularning bebaho meroslari o'z davri olimlarining ilmiy tadqiqotlari uchun doimo fundamental asos bo'lib xizmat qiladi. Bu davr dunyo ilmida "Musulmon renessansi" yoki "Sharq Uyg'onishi" nomi bilan atalib kelinmoqda.

Ikkinchi Uyg'onish davri(Temuriylar davri) o'zining bunyodkorlik ishlari bilan alohida ajralib turadi. Bu davrda arxitektura, shaharsozlik, xunarmandchilik bilan bir qatorda san'at ham gullab yashnadi. Jumladan, "Amir Temur(14 asr) va Temuriylar(15-16 asrlar) san'atning barcha jabhalarida yangi Uyg'onish davri yuzaga kelishini ta'minlab berishdi. Turli mamlakatlardan Samarqand, Buxoro kabi markazlarga keltirilgan san'atkorlar – bastakorlik, musiqa ijrochiligi va musiqashunoslik jadal rivojlanishiga hissa qo'shishgan". Ayniqsa, Movarounnahr diyorining donishmand hukmdori Mirzo Ulug'bek, shoir va mutafakkirlar Jomiy, Alisher Navoiy, adolatpesha hukmdorlar Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Boburlarning o'sha davr Uyg'onish davri madaniyatiga qo'shgan hissasi alohida qayd etish lozim.

